



O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Qadrlı vatandoshlarim!
Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan yangi 2026-yil bilan chin yurakdan muborakbod etaman.
O'tib borayotgan yil xalqimiz hayotida katta o'zgarishlar, ertangi kunga mustahkam ishonch va ulkan natijalar yili bo'ldi.
Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, biz o'z oldimizga qo'ygan barcha maqsad va mar-

ralarga erishdik. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi va mamlakatimiz o'rta daromadli davlatlar qatoridagi o'rini mustahkamladi.
Iqtisodiy o'sish samarasi odamlarimiz hayotida, oilalar daromadida, mahallalar qiyofasida, yoshlarimizning kelajakka bo'lgan ishonchida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'tayotgan yilda har bir oila, har bir xonadonda xursandchiliklar, baxtli onlar ko'p bo'ldi.
Yangi uyga ko'chib kirgan, o'z biznesini yo'lga qo'ygan yoki kengaytirgan, daromadi oshgan, ilm-fan, sport, madaniyat va boshqa sohalarida o'zi yoki farzandlarining yutuqlaridan quvongan millionlab oilalarning shodligi 2026-yildagi maqsadla-

rimizga erishish yo'lida bizga albatta katta kuch beradi.
Aziz yurtdoshlarim!
Biz kelgusi yilda ham har bir oilaning baxtli, farovon va sog'lom hayot kechirishi, yoshlarimizning sifatli ta'lim olishlari, kelajak kasblarini egallashlari va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun yangi-yangi imkoniyatlarni ishga solamiz!

Biz 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qildik.
Yangi yilda minglab mahallalar infratuzilmasini yaxshilab, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz.

Barcha iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazamiz. Xalqimizning daromadi va xarid qobiliyatini oshirish ishlarini yanada jadallashiramiz.

Aholining yordamga muhtoj qatlamlari, muhtaram keksalarimiz, qadrlı xotin-qizlar va navqiron yoshlarimizni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz.

Ekologiyani yaxshilash, "yashil" energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ta'sirchan choralarni davom ettiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, yangi 2026-yilda ham barcha islohotlarimiz, sa'y-harakatlarimiz odamlarimiz yaxshi yashashi va biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

Tajribali mahalla raislari va faollari, ziyolilar, tadbirkorlarimiz, serg'ayrat yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz, har bir vatandoshimiz ushbu oljanob ishlariga munosib hissa qo'shadi deb ishonaman!

Aziz vatandoshlarim!
Yangi yil arafasida har bir oila yaxshi niyatlar qiladi, har bir inson qalbida yorqin orzu-umidlar jo'sh uradi.

Har birimizning pok niyatlarimiz, ezgu maqsadlarimiz 2026-yilda albatta amalga ohsin!
Yangi yil har bir oilaga sihat-salomatlik, baxt-saodat, qut-baraka, yurtimizga yuksak taraqqiyot, tinchlik-xotirjamlik olib kelsin!

Yaratgan Parvardigor Vatanimizni asrasin, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash yo'lidagi ishlarimizda madadkor bo'lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin, azizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

BUGUNNING SHE'RI



CHORLOV

Yigiti qirq hunarli el bu,
Pokdomondir gulnigorlari.
Yerida zar unarli el bu,
Tillo bo'lar chang-g'uborlari.
Qadr tuni kelgandayin kel,
Yillar aro ulug' bo'lib bil!

Qadamida o'ti bor yoshlar,
Vatan mehri ko'zlarida jo.
Yuragidan chiqar quyoshlar,
Bu yoshlarga havasda dunyo.
Yangi yilim, biz tomon shoshgin,
Shavkatli bo'l, to'kin bo'l, toshgin!

Abiralar kamolin ko'rib,
Shukr aytib, shodlansin onam.
Tashvishlardan yuzini burib,
Baxtga peshvoz bo'lolsin bolam.
Keksa-yoshni birday siylay bil,
Shodlik keltir, jonim, Yangi yil!

Xalq ko'nglini so'rasa qay zot,
Ikki dunyo saodat yor.
Inson ulug' bo'lgan yurt obod,
Istiqboli bo'lar ustuvor.
Ko'ngil so'rab kelding, toshdi dil,
Saodatli bo'lgan, Yangi yil!


Tili bilan dili bir xalqim,
Tinchlik senga boladay aziz.
Ko'zin tiksa baxtingga har kim,
Ko'zmunchog'ing bo'layin hargiz!
O'tgan yildan baxtliroq kelgil,
Poyqadami qutlug', Yangi yil!

Laylo SHARIPOVA

MUNOSABAT

TARAQQIYOT XARITASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisa va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi yilning eng muhim siyosiy voqealaridan biri bo'ldi. Murojaatnoma nafaqat davlat hokimiyati organlari uchun dasturulamal, balki har bir fuqaro uchun mamlakatning kelajagi haqida tasavvur beruvchi muhim hujjatdir. Unda o'tayotgan yildagi taraqqiyot natijalari sarhisob qilinib, kelgusi yil uchun asosiy ustuvor yo'nalishlar, vazifa va strategik rejalar belgilab berildi, eng muhim g'oya va tashabbuslar ilgari surildi.



Avvalo, O'zbekiston 2025-yilda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ulkan yutuqlarga erishgani e'tiborlidir. Oqilona yuritilayotgan siyosat va xalqimizning fidokorligi tufayli islohotlar izchil davom etib, milliy taraqqiyot yangi bosqichga ko'tarildi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlarining uzilishi, xomashyo va moliyaviy resurslar narxining keskin oshishi kuzatilayotgan bir

davorda ham O'zbekiston iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etmoqda.

Prezidentimiz so'nggi to'qqiz yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarga to'xtalib, iqtisodiyotni tubdan yangilash, bozor munosabatlarini joriy etish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida katta yutuqlarga erishilganini alohida ta'kidladi. Xususan, mamlakatimiz

tarixida ilk bor yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard AQSH dollaridan oshishi xalqimizning ulkan salohiyati va mehnatsevarligining yaqqol namunasidir. Xalqaro reyting agentliklari o'tkazgan tahlillarda O'zbekistonning suveren reytingi ko'tarilgani mamlakatimizga bo'lgan ishonch mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

TAASSUROT

Xitoy jahonda, jumladan, bizda ham eng ko'p eslanadigan mamlakatlardan biri. Internetda ham, vaqtli matbuotda ham, radio-televideniyeda ham bu davlat takror va takror qayd etib o'tiladi. Xitoyning iqtisodi yildan yilga jahonshumul ravnaq topayotgani uning nomini tillarda doston etmoqda. O'zbekistonning ham borgan sari jadal rivojlanayotgani va xalqaro obro'yi oshib borgan sayin bu qudratli mamlakat bizning ishonchli yaqin hamkorimizga aylanib bormoqda. Buning uchun, rahbariyatimizning maqtovg'a loyiq amaliy sa'y-harakati tufayli amalga

oshirilayotgan ulkan ko'lamli sherikchilikni ko'z oldimizga keltirishning o'zi kifoya. Chin o'lkasidan kirib kelayotgan investitsiyalar va qo'shma korxonalarga hozir hech kim favqulodda hodisa deb qaramaydi. Masalan, qishloq xo'jalagimizda, xususan, paxtachilikda erishganimiz bu yilgi yutuqlar ham (respublika bo'yicha har bir gektardan 46 sentnerdan hosil oldik!) xitoyliklar tajribasini ijodiy o'zlashtirish tufayli ro'y berdi. Hamkorligimiz minglab nuqtalarga borib taqaladiki, barchasini sanash uchun kamina ojizlik qiladi.

XITOIY SAFARI

Biroq bu o'zaro hamkorlikning barakali, bunyodkor harakatlari jara-yonida Chin yurti bilan bahamjihat hal etishimiz lozim bo'lgan boshqa jabhalar ham borligi tobora ayon bo'lib qolyapti. Ehtimol bu jabhalarni shoshmasdan kun tartibiga kiritilishda bardavom izlanish, qunt bilan bajarilishi lozim o'rinlar ko'pligi ham o'z rolini o'ynagan bo'lishi mumkin. Gap Xitoy adabiyoti va madaniyatini yaqindan o'rganish, o'z navbatida, o'zbek adabiyoti va madaniyatini shu tarzda xitoyliklarga tanishtirish haqida ketyapti. Men Xitoy haqida o'ylaganimda, bu buyuk xalqning adabiyoti va madaniyati bilan yetarlicha tanish emasligimga iqorman.

(Davomi 3-sahifada.) ➔





TARAQQIYOT XARITASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu, o'z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash, tashqi moliyaviy resurslarni kengroq jalb qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Murojaatnomada aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy islohotlarga alohida to'xtalib o'tildi. Kambag'allik darajasining sezilarli darajada qisqarishi, millionlab insonlarning daromadli bo'lishi, "kambag'allikdan xoli mahallalar" sonining ortishi davlat siyosatining samarasini ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, inklyuziv ta'limni joriy etish, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar jamiyatda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyilini mustahkamlamoqda.

Jumladan, 2025-yilda eksport hajmi 23 foizga ko'payib, 33,4 milliard dollarga yetkazilgani qayd etildi. Oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 60 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli 5 million aholi daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga qisqardi. Mamlakatimiz tom ma'noda ulkan qurilish maydoniga aylandi. Yangi uy-joylar, ta'lim va madaniyat maskanlari, mahobatli ko'priklar, ravon yo'llar, so'lim bog'u xiyobonlar yurtimiz ko'rkiga ko'rk bag'ishlab, xalqimizning hayot sifatini yaxshilamoqda.

O'zbekiston Shimol va Janub, Sharq va G'arbni birlashtiradigan markazga aylanib bormoqda. Oktyabr oyida Bryusselda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida imzolangan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim, noyabr oyida o'tkazilgan Markaziy Osiyo va AQSH sammiti, yaqinda Tokioda Markaziy Osiyo va Yaponiya yetakchilarining uchrashuvida erishilgan kelishuvlar ko'p tomonlama va uzoq muddatli sheriklikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. O'tgan haftaning boshida Sankt-Peterburgda MDH davlatlari rahbarlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuv ham hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.

Mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz ham tinch va hamijihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Mahalladagi ijobiy muhit fuqarolarning farovonligini ta'minlashga, ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab, davlat siyosatining bevosita aholiga



yetib borishini ta'minlaydi.

Prezidentimizning 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish taklifi mahalla institutiga bo'lgan e'tiborning yangi bosqichga ko'tarilishini anglatadi. Ushbu tashabbus mahalla tizimini yanada mustahkamlash, uning infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish va ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat dasturlarini amalga oshirishni belgilab beradi. Mahalladagi islohot har bir xonadonga kirib borish, har bir inson taqdiri bilan qiziqish, uning orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqaradigan tizim yaratish demakdir.

Davlatimiz rahbari 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim va ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini – barcha-barcha sohalarini rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi.

Birinchi ustuvor yo'nalish mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, unga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi ustuvor yo'nalish – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazishni qamrab oladi. Kelgusi yili iqtisodiyotda 6,6 foiz o'sish va yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari uchinchi ustuvor yo'nalish – ichki bozorda talabni rag'batlantirish masalasiga alohida to'xtaldi. Aholi ehtiyojidan kelib chiqib, iqtisodiyotda eng katta talab yaratadigan uy-joy ipotekasiga 2026-yilda 23 trillion so'm resurs ajratiladi. Uy-joy sotib olishda boshlang'ich to'lov va foiz to'lovlarning bir qismini qoplash uchun 2 trillion 700 milliard so'm subsidiya beriladi.

Shuningdek, bitta kvartira uchun ajratiladigan imtiyozli ipoteka kreditining miqdori 15 foizga oshiriladi.

Ichki temir yo'llarni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Shaharlarni tezyurur poyezdlar qatnovi bilan bog'lash uchun 2026-yildan yana 500 kilometr temir yo'l qurilishi boshlanadi. Avtomobil yo'llarining sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish maqsadida besh yillik dastur amalga oshiriladi.

Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish kelgusi yil dasturining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bo'ladi. 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'mirlanib, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boriladi. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish – ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid. Ekologiya hayot-mamot masalasi ekani bugun tobora oydinlashmoqda. Shu bois, ekologiyani asrash va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ishlar yangi bosqichda davom ettiriladi. Jumladan, yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyalari o'rnatish uchun 100 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi.

Shaharlardagi tirbandliklar odamlar hayotini qiyinlashtirish bilan birga, ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois, dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillarga chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab ekologik stikerlar berish tizimi joriy etiladi. Katta

miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklanadi. Bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o'rnatish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'riladi. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish tadbirlari amalga oshiriladi.

Oltinchi ustuvor yo'nalish – zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlar davom ettiriladi. Avvalo, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Endi barcha davlat idoralarning mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari, 200 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchilarining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi. Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korruptsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli ekotizim yaratiladi.

Proaktiv va jamlama shaklda davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi. Korruptsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini yemiradigan eng jiddiy tahdid. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilinishi aytiladi. Xususan, barcha idoralarda komplayens va korruptsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi. Jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib borayotgan murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyat davom ettiriladi. Nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, iqtisodiy institutlar bilan yaqin hamkorlik yangi bosqichga olib chiqiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan hayotbaxsh tashabbuslar va belgilab berilgan dolzarb vazifalar xalqimizni rozi qilish, Yangi O'zbekistonda barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Barcha yurtdoshlarimiz qalbida, ong-u ruhiyatida bir tebranish, jo'shqinlik va ko'tarinkilik uyg'otgan Murojaatnoma har birimizni hayotga teran nazar tashlashga, el-yurt taqdiriga daxldorlik, fidoyilik va bedor qalb bilan yashashga da'vat etadi.

Jamoliddin BADALOV

DIL IZHORI



YUKSAKLIK YOR BO'LSIN!

2025-yil men uchun juda omadli keldi. Bir yil ichida karate bo'yicha Osiyo chempionati hamda MDH o'yinlarida oltin, Islom birdamligi o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritdim.

Noyabr oyida Jahon chempionatida ishtirok etib, oltin medal egasiga aylandim. Shu tariqa kumite yo'nalishidagi jahon chempionlari ro'yxatiga o'zbekistonlik ayol sportchining ham nomi yozib qo'yildi. Men uchun bu g'alaba faqat shaxsiy yutuq emas, balki Vatanimiz bayrog'ini xalqaro maydonda baland ko'tarish baxtidir.

Yangi yilda 20 yoshga to'laman. O'tgan asrning 20-yillarida Germaniyaga o'qishga jo'natilgan turkistonlik talabalar orasida mendan ham yosh qizlar bor edi. Afsuski, ularning fidokorona xizmatlari qadr topmadi. Bugun biz nufuzli musobaqalardan g'alaba bilan qaytar ekanmiz, Prezident sovg'alariga loyiq ko'rilyapmiz.

2026-yilda tengdoshlarimga, qadrlil sportchilarga yangi va yuksak yutuqlar yor bo'lishini tilayman!

Gulshan ALIMARDONOVA,
Karate WKF bo'yicha jahon chempioni

ZAMON NAFASI

Markaziy Osiyo – tarixan karvon yo'llari kesishgan, bugun esa yangi iqtisodiy yo'laklar, yangi bozorlar va yangi imkoniyatlar tug'ilayotgan hudud. Mintaqadagi davlatlarning o'zaro bog'liq logistikasi, umumiy suv-energetika tizimlari, mehnat migratsiyasi va madaniy yaqinligi iqtisodiy hamkorlikni tabiiy zaruratga aylantiradi.

So'nggi yillarda mintaqa davlatlari iqtisodiyotining faollashuvi, eng avvalo, tashqi savdo dinamikasida yaqqol ko'zga tashlanadi. E'tiborli jihati shundaki, bu o'sish yangi ish o'rinlari, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari uchun yangi bozorlar, xizmatlar eksporti, investitsiyalar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

YO'L BO'LSA – BOZOR BO'LADI

Markaziy Osiyo iqtisodiy o'sishining muhim drayveri – transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi xalqaro yo'laklarni ochishdir. Bu haqda mintaqa rasmiy va ishbilarmon doiralardagi muhokamalarda umumiy bir fikr ilgari surilmoqda: "Logistika bu raqobat demakdir". Hatto SHHT sammitlarida ham yangi transport yo'laklarini ochish va rivojlantirish barqaror taraqqiyot sharti ekani doimo ta'kidlanib kelgan.

Eng yirik voqealardan biri: Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasining ko'p yillik muzokaralardan so'ng amaliy bosqichga o'tishidir. Xususan, 2024-yil iyunida Pekinda uch davlat hukumatlari tomonidan mazkur temir yo'li qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. Yo'lining umumiy uzunligi 532 km dan ortiq bo'lib, 20 ta stansiya, 42 ta ko'prik va 25 ta tunnel

RAVNAQIMIZ GAROVI



qurilishini o'z ichiga oladi. Ushbu loyiha 2030-yilga qadar yakunlanishi va uning boshlang'ich quvvati yiliga 15 mln tonna yuk o'tkazishi rejalashtirilmoqda.

Ikkinchi muhim yo'nalish: Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi hisoblanadi. Ushbu marshrut Rossiya va Eron orqali o'tadigan an'anaviy yo'llarga nisbatan taxminan 3000 km qisqa bo'lib, geosiyosiy xavflar sharoitida esa strategik muqobil sifatida ko'rilmog'da. Masalan, 2021-yilda bu yo'lakdan bor-yo'g'i 350 ming tonna yuk o'tgan bo'lsa, 2024-yilga kelib yuk hajmi 4,1 mln tonnaga yetdi, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichning 11 mln tonnagacha o'sishi bashorat qilinmoqda.

Mintaqa davlatlari uchun yana bir dolzarb yo'nalish: Afg'oniston orqali dengizga chiqishdir. Ma'lumki, Markaziy Osiyo uchun dengiz portlariga chiqish azaliy orzu bo'lib kelgan. "Termiz – Mozori Sharif – Kobul –

Peshovar" Trans-Afg'on temir yo'lining barpo etilishi ana shu muammoning hal etilishi va shu orqali mintaqa xalqlarining asriy orzularining ro'yobga chiqishiga asos bo'la oladi. Ushbu yo'nalish nafaqat eksport-import xarajatlarini tushiradi, balki Markaziy Osiyo davlatlari va Janubiy Osiyo mintaqasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rishtalarning bog'lanishi va mustahkamlanishiga, bevosita, ijobiy ta'sir o'tkazadi.

"HAMMA BOZOR BIR BOZOR" EMAS

Hamkorlikning ilk mezonini savdodir. Zero, savdo bor joyda baraka bo'ladi, xalq farovon yashaydi. So'nggi yillarda mintaqa davlatlari rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida o'zaro savdoni yengil va tez amalga oshirish uchun muayyan darajada qulayliklar yaratilmoqda. Ammo

bu borada hali qilinadigan ishlar talaygina. Jumladan, chegaradan o'tish tartiblari yengillashtirilsa, bo'xona jarayonlari raqamlashtirilsa, transport vositalarining o'tishi tezlashtirilsa, o'zaro savdo yanada samaraliroq bo'lar edi. Boisi, tadbirkor uchun qo'shni davlat xorij emas, balki kengaygan ichki bozorga aylanadi. Bir mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shni davlatda tez sotilishi natijasida, avvalo, logistika arzonlashadi, qolaversa, yetkazib berish muddatlari qisqaradi, valyuta va to'lov xavflari kamayadi va bir-birini yaxshi tushunish, ya'ni til, standartlar, iste'mol odatlarining yaqinligi tufayli biznes yanada rivojlanadi.

INVESTITSIYA – ISHONCH DEMAK

Ma'lumki, savdo har qanday ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, ishlab chiqarish

esa investitsiyasiz o'smaydi. Markaziy Osiyoda investitsiya oqimlari ham bir xil emas, bu borada O'zbekiston hozirda peshqadamlikni ushlab turibdi, ya'ni 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizga qilingan jami investitsiyalar hajmi 36 mlrd AQSH dollaridan ziyod bo'lgan. Qozog'istonda esa bu ko'rsatkich 23,6 mlrd dollarni tashkil etgan. Investitsiya hajmi Tojikistonda 4,9 mlrd dollar, Turkmanistonda 1,4 mlrd dollar va Qirg'izistonda 873 mln dollar bo'lgani qayd etilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bir-biriga bo'lgan ishonchning ortishi, ma'lumotlar almashinuvinin yo'lga qo'yilishi, standartlarning yaqinlashtirilishi, logistikaning yagona raqamli hujjat aylanmasiga o'tishi xorijiy sarmoyadorlarda ham qat'iy ishonch paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Zero, investor uchun bozor hajmi faqat aholi soni bilan emas, balki qonun-qoidalarining barqarorligi va logistikaning to'laqonli ishlashi bilan ahamiyatlidir.

Joriy yilning 15-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvi ushbu yo'nalishdagi muhim bosqich sifatida qayd etildi. Uchrashuvda ishtirokchi mamlakatlar rahbarlari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdilar.

Albatta, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi nafaqat bugungi shiddatli zamon talabi, balki u shu zaminda yashovchi xalqlarning ravnaqi va farovonligini ta'minlovchi yagona yo'dir.

Ravshan ABDULLAYEV,
iqtidod fanlari doktori,
professor



Boshlanishi 1-sahifada.

Yo'q, Xitoy mumtoz she'riyati namunalari rus tilida o'qiganman, hatto bir qadar o'zlashtirganman, desam ham bo'ladi. Li Bo, Du Fu kabi mumtoz shoirlarning she'riyatidan hayratga tushganman. Konfutsiyning ilohmat-uvliyolarcha karomatlaridan iborat to'plamini, zamonaviy xitoy nasri asoschisi hisoblangan Lu Sinning bir jildlik asarlarini o'qiganman ham esmda. Ha, hatto nisbatan zamonaviy shoirlardan birining turkum she'rlarini o'zbekchaga ag'darganman ham, ammo bu urinishlarim ummondan bir tomchi ekanligini ham anglayman.

Bizda Xitoy adabiyoti haqida tasavvur juda pala-partish. Shu darajaga yetganki, Xitoy mumtoz poeziyasida paydo bo'lgan hakku va tanka janrlari negadir yapon she'riyatiga tegishli ekanligi takror va takror aytiladi. Bu janrlarda o'zlaricha nimadir yozganlar ham, bu xitoyi mumtoz janrlar chin nazmidan yapon she'riyatiga o'tganligini xayollariga ham keltirmaydilar.

O'zbekistonni qo'yaylik, sovet adabiyotining chinakam ilg'or adiblari ham xitoy adabiyotidan batamom bexabar bo'lganlar. Chingiz Aytmatovdan xitoy adabiyoti haqida so'ralganda: "Xitoy go'yo cho'ng tog'ning ortida yashirilib olgan – nima bo'layotganini hech kim bilmaydi", deb javob berganini o'z qulog'im bilan eshitganman. Bu "Иностранная литература" jurnaliga bosh muharrir bo'lgan yozuvchining e'tirofi edi.

Men Xitoyda bo'lganman. 1989-yilda sovet yosh yozuvchilari delegatsiyasi tarkibida o'n besh kun Xitoyni aylanganman. Bu yurtning qadimiy me'morchiligi va tasviriy san'atidan hayratga tushganman. Ammo mamlakatning umumko'rinishi o'sha payt juda nochor – ko'chalarda eski sovet avtomobillari, Pekinning shundoq markazida ko'rimsiz mahallalar, tik turganining o'zi mo'jiza bo'lib tuyulgan besh-to'rt qavat uylar, ahyon-ahyon norg'ul yigitlar tortib borayotgan rikshalar... Biroq men xitoyliklarning g'ayrat-shijoatini lol qolib kuzatganman. O'shanda Xitoyda bozor iqtisodi endigina e'lon qilingan edi. To'xtab turgan odamni ko'maysiz. Hammasi velosipedda, poy-u piyoda qayoqlargadir shoshib ketaypti. Ularning mehnatkashligi-ku ta'rifga sig'maydi – ba'zi sharqliklarga xos erinchoqlikka izn bermaganlar. Barcha turmush tashvishida izg'ib yuribdi. Bozorlar gurillab turibdi. Savdo mittigina do'konlardan toshib, aravachalarga sharra-barrasini ortib, ko'chaga chiqqan... Bu mamlakatni, bir kun kelib, masalan, Yaponiya kabi gullab-yashnab ketishini ko'z oldimga keltirolmaganim rost.

Men ko'p mamlakatlarda bo'lganman. Ammo faqat Xitoyni qayta ko'rishni orzu qilganim bor gap. Xitoyning ko'nikib qolganimizdan ayrica me'morchiligi, badiiy va amaliy san'ati meni hayratga solgan. Mana, orzum amalga oshdi. Chunki, yuqoridaga aytganim, kemtikni to'ldirish uchun Xitoyga yo'l oladigan bir guruh olimlar qatorida, men ham boradigan bo'ldim.

O'zbekiston hukumati qarori bilan Madaniyat vazirligimiz shafeligida Alisher Navoiy jamg'armasi hamda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari, navoiyshunoslar va men – yagona shoirdan iborat delegatsiyamiz a'zolari Toshkentda – aeroportda uchrashganimizdanog menga yoqdi. Rosti, odamlarni ko'raverib ko'zim pishib ketgan. Darhol angladim – yaxshi odamlar! Tik turib biron shubhatdan keyin, endigina tanishganman, institut xodimlarini ham o'zimga juda yaqin oldim. Fikrlari keng, bilimli, odam sifatida ham porlab turgan, ziyoli kishilar ekan bu yigitlar. Safarimiz oxirida esa, shunday xalalarim bo'lishini orzu qildim...

Pekinda elchixonamiz xodimlari juda xushnudlik bilan kutib oldi. Elchimiz Farhod Arziyev O'zbekistonga chaqirilgan ekan. Uchishga shaylanayotgan samolyotdan turib biz bilan bog'landi. Xitoydagi amalga oshirishimiz lozim bo'lgan ishlar uchun shart-sharoitlar yaratilgani, elchixonada doim xizmatimizga tayyorligi haqida gapirdi. Bizning kelganimizdan xursandligini aytdi. Uning ovozi chindan xursand bo'lgan odamning ovozi edi. O'zi ishtirok etolmasligidan esa afsuslandi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishidagi O'zbekiston delegatsiyasi ilk bor Chin o'lkasiga tashrif buyurgan ekan. Men esa, Xitoyga qadamini qo'ygan mustaqil O'zbekistonning birinchi shoiri bo'lib chiqdim. Ammo, tan olib

aytishim lozimki, men Xitoyga qadam bosgan ikkinchi shoirmen. Bu yurtga birinchi qadam bosgan shoir esa Farhod Arziyevning o'zi! Shu elchimiz juda sifatli va teran she'r yozadigan shoir hamdir. Elchixonada xodimlari bilan keyin kechgan suhbatlarda bu katta diplomat juda mehnatkash – o'zini ayamay, ertadan kechasi bir vaqtlargacha ishlaydigan inson sifatida ta'riflandi. Ishlaydi-da! Axir, haqiqiy shoir Vatanini yaxshi ko'radi! Vatan uchun o'zini ayamaydi!

Avtobus derazasidan qarab boryapman. Men ko'rgan Pekindan asar



ham qolmagan. Har qadamda to'da-to'da baland binolar, shakllari ham antiqa. O'n qavatli imoratlar ko'proq. Ba'zan hashamdorlari uchraydi. Boy kompaniyalarga qarashli bo'lsa kerak... Ammo manzaralar meni hayratga solmadi. O'zimizda ham bor. Ko'rganimiz. Manzilga yetib borib, mo'ljallangan ishlarni bajarishga jadalik bilan kirishdik. Birinchi manzilimiz Pekindagi Markaziy kutubxona bo'ldi. Hamrohlarim boshqa, men boshqa ulovda "Kutubxona qaydasan?" deb yo'lga tushdik. Pekin juda katta shahar. Aytishlaricha, o'ttiz milliondan ortiq aholi yashar ekan. Shu sababdan boradigan manzilimizgacha ancha yo'l bosishga to'g'ri keladi. Buning ustiga, tiqinga (Bor ekan! Bularda ham bor ekan!) tushib qoldik. Nihoyat, uzun tiqin! Ammo Toshkentning tiqinlariga chiniqib qolganimdanmi, asabiylashmasdan bu ko'rimgan o'tib oldik. Shofyorlik vazifasini bajarayotgan elchixonamiz xodimi Dilshodjon ilonday buralib yotgan tiqindan boshqa yo'lga o'tib oldi. Manzilga yetib borganimizda, hamrohlarimiz kutubxona eshigi oldida jam bo'lib turishgan ekan. Barchaning yuzida tabassum. "Ey, sizni Xitoyda ham bilishar ekan!" deb chug'urlashyapti menga qarab. Men go'yo butun dunyo taniyidigan shoirday vazminlik bilan ularga qaradim. Qarasam, ulardan ajralib, sarvqomat bir xitoy qiz, yuzlarini tabassumga to'ldirib, men tomoniga yurib kelyapti.

– Usmon Azim? – dedi qiz qo'lini uzatib. "Yigitlardan ismimni bilib olgan-da", deb o'yladim.

– Men sizning she'ringizni bilaman... Men bir cho'chib tushdim. – She'rimni?..

Kamina o'zining atrofidagi gap-so'zlariga sal kulib qaraydi. Axir, bu dunyoda kimlar kelib, kimlar ketmagan... – "Baxt haqida ballada"ni... – Qiz balladaning birinchi satrini o'qidi. – "Men baxtni ko'rganman. Ko'rganman. Aniq..."

Haqiqatdan, mening she'rim. Ajabsinib unga qaradim. – Ustozim Gulsora Mirzaahmedova bilan shu she'rni o'rganyapmiz. Tarjimon qiz Pekin universiteti talabasi, ustoz shu o'quv yurtining o'n besh yillik o'qituvchisi ekan.

Endi tushunarli. Keyin ularning darsi tasviri tushirilgan videoni ko'rdim. Ikki odam bo'yi katta ekranda mashhur she'rxon aktyorimiz Erkin Bozorov "baxtni ko'rgani" haqida she'rni o'qiyapti. Partalarda o'ntacha talaba diqqat bilan quloq tutib, o'zbekchani sinib yapyapti... Kamina matematikani esdan chiqarmagan! Zo'riqibo'lsa ham, hisoblab chiqdim. Ikki-uch yilda bu harakatchan xitoyliklar o'zbek tilini boshqalarga ham o'rgata boshlaydi... Demak, besh-olti yilda bu she'rni yoddan biladigan yuzga yaqin xitoy talabalari paydo bo'ladi... Zo'r-ku! Tushunib turibsig, gap menda emas, balki chin farzandlari o'zbek tilini she'rni o'rganishdan, yodlashdan boshlaganlarida! Axir, bizning she'rxon

o'lkamizda qanchadan qancha odamlar she'rdan uzoqlashib ketdi, hatto kasbiga ko'ra she'rni miridan sirigacha bilishi kerak xonandalarning katta qismi, she'r deb bir balolarni kuyga solib yotishibdi. Eshitsang, ko'ngling ayniydi... Ha, mayli, qizishmasdan, Xitoyga qaytaylik...

Bu tarjimon qizning ismi Lola ekan. Asli ismi boshqacha, ammo bizga qulay bo'lsin deb, shu ismi tanlabdi.

Shu payt kutubxona xodimlari bizni ichkariga taklif qildi.

Liftda eng tepa qavatga ko'tarildik... Pastgina ovozda, bir tomoni panjara bilan o'ralgan kitobxonaga taklif qilishdi.

Stollardagi kompyuterlar qarshisida – kelganlarga qayrilib ham qaramay – berilib kitobxonlik qilayotgan yuzlab kitobxonlar. Ulardan narida uzun – juda uzun taxta javonlarda terilib qo'yilgan kitoblar. Meni hayron qoldirgan esa, sal nariroqda – supa divanlar ustida tosh qotib uxlayotgan odamlar bo'ldi. Xitoyga avvalgi kelishimda, mehmonxona xodimlarini tushlikda, yig'ma katlarni ochib uxlayotganini ko'rgan edim. O'shanda Xitoyda xodimlar tushlikda ishonxanang o'zida shu tarzda hordiq chiqarishlari rasm ekanligini menga tushuntirishgan. Ammo kitobxonlar... Aytishlaricha, kutubxonaning o'zida mudrab olish kitobxonning vaqtini tejat ekan.

Javonzorlar (shunday desam bo'larov) oralay, kitoblarni ko'zdan kechiraman. Bu bo'limga xorijiy kitoblar jamlangan ekan. Hammasi original tillarida. Lotincha yozuvli kitoblar mualliflarining anchasi menga ham tanish... Muqovalari uringan, rosa o'qilgan kitoblar...

Bizni panjara tarafga taklif qilishdi. Yaqin keldim va... hayratdan qotib qoldim: pastki foyegacha bo'shliq atrofida qavat-qavat, chir aylanma o'quv zallari. Biror ovoz eshitilmaydi. Biror bo'sh stol yo'q. Qarshisida kompyuter, stolda kitob – kitobxonlar bosh ko'tarmay bilimni miyaga joylayapti. Menga hatto ular negadir bilimlarni yutoqib simirayotganday tuyuldi. Ha, pastki qavatlarda ham yassi supa divanlarda dong qotib uxlayotganlar...

Ana, endi delegatsiyamiz a'zolarini qiziqtirayotgan masalalarga o'tdik. Kutubxonada o'zbek mualliflarining kitoblari bor-u yo'qligini surishtirdik. Mezbonlar bizni uyalgannamo o'zbek kitoblari o'zbek tilida ham, xitoy tilida ham, boshqa tillarda ham yo'qligini aytishdi. O'zimiz ham biladiganimiz, bu sohada delegatsiya birinchi bor O'zbekistondan kelganini ham qistirib o'tishdi. "Qo'lyozmalar jamg'armalaridagi-chi?" degan savolga men shunday javob oldik. "O'zimiz qo'lyozmalar bo'limiga tushib, birrov nazar solsak bo'ladimi?" degan niyatimizga esa sharqona shirin-u shakar tabassumlarga aralash rad javobi oldik. Bu niyatimizni amalga oshirish uchun naq o'n olti kun avval "iltimosnoma" yozilishi kerak ekan. Men agar xitoyliklar shunday niyatda O'zbekistonga borishsa, mehmon istagi shu zumdayog'ga bajo keltirilib, hamma eshiklarni ochib qo'yishimizni aytdim. Kor qilmadi. Yana o'sha shirin-u shakar tabassumda, tartib shunaqa ekanligini ta'kidlashdi, xolos.

Shu joyda delegatsiyamiz Xitoyda iz qoldirib ketishga jiddiy harakat qildi. Navoiy jamg'armasi boshlig'i, mashhur bilimdon Olim Davlatovning imosi bilan bir nechamiz ter to'kib, ko'tarib kelganimiz, qog'oz tugunlarni ochdik-da, dasta-dasta kitoblarni kutubxona xodimlari ko'lga tutqazdik. Bu kitoblar Buyuk Alisher Navoiy ijodi va hayoti tahlil etilgan kitoblar majmuasi. Naq o'ttiz jild! Kutubxona xodimlari minnatdorlik bilan qabul qilishdi.

Rostini aytсам, bu mamlakatda Alisher Navoiyni bilmasliklariga ishonmadim. Axir, Xitoy katta mamlakat – qayerdadir bilib, qayerdadir bilmasliklari mumkin-ku!

Ertasi xitoylik bir guruh ijodkor ziyolilar bilan uchrashdik. Avval teatr, deb tanishtirilgan binodagi ajib bir ko'rgazmani tomosha qildik.

Boshda aytganimday, Xitoy musavvir-larining ishlarini birinchi bor kelganimda obdon tomosha qilib, yaxshi ko'rib qolganman. Hatto sog'inib ham yurganman... Bir qarashda juda oddiy suratlar. Masalan, musavvir daraxtning birgina novdasini oppoq qog'ozga ajib bir tarzda tushirgan. Shoxda uchta-to'rtta qushlar... Bu manzara boshqa suratlarda ham o'zgacha kompozitsiyada takrorlanadi. Ammo tomoshabin bu suratlarining har biridan ayrica bir zavq oladi... Xitoyda mana shunday – ko'zimiz o'rganib qolgan g'arba musavvirlik san'atidan tamomila farq etguvchi san'at namunalariga har qadamda duch kelamiz. Bunday o'ziga xoslik binolarning rang-barang bezagidan tortib, do'konlar-u idoralarning lavhalarigacha o'z aksini topgan. Qanday yaxshi! Dunyoda ustuvor xalqlarning ta'siri natijasida butun boshli tillar, o'zgacha ko'rinishdagi madaniyat va san'at tizimlari, urf-odatlar yo'q bo'lib ketish jarayoni kechayotgan paytda bunday o'ziga xoslikning borligi qanday yaxshi! Dunyodagi ilg'or texnologiyani suvday simirgan va o'zi ham bu jabhada olam aro ta'sir ko'rsatayotgan Xitoy o'ziga xosligini zarracha yo'qotmagan.

O'ziga xoslik ilk bor ko'rganimdan-da, yarqirab turibdi. Oddiygina ovqatlanish madaniyatini olaylik. Butun dunyoda qoshiq va sanchiq yordamida ovqatlanish taomilga aylanib bo'ldi. Ammo xitoyliklar bu taomilga parvo ham qilganlari yo'q. Hanuz zerikita ingichka yog'och-cho'p bilan ovqatlanadilar... Parvardigor dunyoni mukammal yaratgan. Turfalik ham oxir-oqibat Allohning ijodidir. Bu turfaliklarisiz hayot zerikarli bo'lardi, deb o'ylayman. Qolaversa, xilma-xillik ham dunyoning muvozanatlaridan biridir. Bir xillik esa tanazzulning bir ko'rinishi. Agar hamma mintaqaga bir-birining nusxasi bo'lsa, sayohat qilishga ham hojat qolmaydi.

Xitoyda yana bir diqqatimni tortgan kuzatuv: Xitoy ulkan turistik mamlakat bo'lishiga qaramay, do'konlar va idoralar peshtoqidagi barcha lavhalar xitoycha yozilgan. Faqat aeroportlarda xitoycha ko'rsatgichlarning tagida kichikroq tarzda, inglizcha bitiklar bor. Bu o'rnak oladigan hol ekan, degan o'y safar bo'yi ko'nglimdan o'tib yurdi... Tan olaylik, Toshkent xorijiy tilidagi lavhalar zug'umida...

Endi ajib ko'rgazmaga qaytaylik. Bu ko'rgazma ikki-uch santimetrl mitti haykallardan iborat ekan. Ularga hatto fon ham berilgan. Turfa ranglarga bo'yalgan har bir haykalchaniy fe'l-u atvori ham shundoq ko'rinib turibdi. Liboslari rango-rang, mayda detallargacha qoyil-maqom qilib ishlangan. Guruh haykallar ham antiqa. Mana, daraxtning qorayib ketgan bir bo'lak so'ngagi. U uzunasiga – qoyaga o'xshash bir yo'sinda qo'yilgan. Bu "qoya"ning har bir bo'rtib chiqqan joyida haykalchalar o'rnatilgan. Pastda "qoya"ga ko'tarilayotganlar, teparoqda uch-to'rtta tik turganacha suhbatlashayotganlar, undan balandda davra qurib o'tirganlar, yanada balandda – panjara bilan o'ralgan choproyada (choyxona bo'lsa kerak) yetti-sakkiz haykalcha ulfatchilik qilishyapti... Bir so'ngakda har xil ko'rinishdagi yuzdan ortiq haykalchalar. Nihoyatda antiqa manzara! Eng zig'igi, bu haykalchalar guruch va bug'doy xamiridan yasalar ekan! Bizga tushuntirish berayotgan yigit bu "kasb"ni bobosi o'ylab topganligini, bobosining o'nta farzandidan beshtasi mana shu ish bilan shug'ullanishini aytdi. Yigitning o'zi ham shu san'atning muhtalosi ekan. Qarag, bir odamning sa'yi harakati tufayli xitoy san'atida bir yo'nalish paydo bo'libdi... Bizda ham hunarmandchilikka e'tibor berilayotgani qanday quvonarli! Milliy hunarmandchilik o'zligimizning asoslaridan biridir. Hunarmandchilik xalqimiz ruhini aks ettiruvchi ijodning bir ko'rinishi ekanligini biz ham tushunib yetganmiz. Ota-bobalarimiz kasbini chuqur o'zlashtirib, unga yangilik kirgizayotgan hunarmandlarimiz esa haqiqiy ijodkorlardir.

*** Bu ko'rgazma tomoshasidan so'ng xitoy ijodkor ziyolilari bilan suhbatni boshlab yubordik! Bir tomonda mezbonlar, bir tarafda biz. Xitoyliklarda ajib urf bor ekan. Avval mezbonlarga b'rin-ketin so'z berildi. Ular O'zbekistondan bu yo'nalishdagi delegatsiya birinchi bor kelganini ta'kidlashdi. Xalqlarning madaniyat, san'at-u adabiyot arboblari bilan uchrashuvlari o'zaro yaqinlikka olib kelishi, xalqlarimizning bir-birini teran anglashiga ko'mak beruvchi eng katta vosita ekanligi haqida so'z ketdi. Xitoyda nomoddiy merosni qo'riqlash va o'rganish haqida gap ketganda safimizdagi bu soha mutaxassislari jonlanib qolishdi. O'z-o'zidan savol-javob muloqotlari boshlandi. Bu asnoda ma'lum bo'lishicha, xitoyda qirg' jabhada nomoddiy boyliklar o'rganilar ekan, bizda esa faqat o'n yettita... Mutaxassislarimiz mezbonlarning bunday keng faoliyatlariga aniqlik kiritib, bizda ham bu sohani kengroq o'rganish kerakligi haqida xulosa chiqardilar.

So'z xitoylik shoirga berildi. Shoir yaqinda Braziliyada uyushtirilgan nazmiy anjumandan kuni kecha qaytgani va u joyda jahon shoirlari qon-u qarindoshday yaqinlashib ketgani haqida gapirdi. Xitoylik birodarim juda to'g'ri aytdi! Kamina ham bir-yarim shunday yig'ilishda ishtirok etgan va bunday yaqinlikdan zavq olgan edi. Hamkasbim juda keskin fikrlar ham yuritdi. "She'riyat o'lsa, dedi u, kelajak o'ladi". Qalay?

Mezbonlar safida bir uyg'ur olima ham bor ekan. U o'z tilida so'zlay boshlagach, tarjimoniga hojat qolmadi. Olima turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti bilan shug'ullanuvchi ustoz olamdan o'tqandan keyin, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi mutaxassis qolmaganidan gapirdi. Obbo!..

Navbat bizga yetdi. Olim Davlatov o'zbek adabiyoti, adabiyotlar hamijihatligi haqida fikr yuritdi. Albatta, Alisher Navoiydan so'z ochdi. Anjuman bu paytga kelib, tamoman suhbat tarziga ko'chib ulgurgan edi. Olim ukamiz shu orada ikkalamiz maslahatlashib ulguranimizni amalga ko'chirdi: "Xitoy adabiyotidan o'n nosir va o'n shoirni o'zbek tiliga o'g'irsak, sizlar ham xuddi shu qabilda bizning adabiyotdan tarjima qilsalaring..." Bu taklif anjumanni boshqarib berayotgan katta martabali xonimga juda yoqdi. "Shu paytgacha, dedi u yayrabgina, xorijiy mehmonlar o'z adabiyotlarini xitoy tiliga o'g'irish haqida gapirishardi. Sizlar birinchi bo'lib xitoy adabiyotini o'z tillaringga tarjima qilish to'g'risida ham taklif beryapsizlar". Xullas, bu ishni amalga oshirishga qat'iy qaror qildik. Endi navbat menga tegdi. Men mezbon shoirming so'ziga izoh berishdan boshladim. "She'r o'lsa, kelajak o'lmaydi, dedim men, ammo u juda zerikarli bo'ladi". Mezbonlarning, mezbon shoirming yuzlarida tabassum paydo bo'ldi. Ma'qullashganday bosh qimirlatishdi. Keyin o'zbek poeziyasi haqida, bilganimcha xitoy she'riyati haqida – xitoy mumtoz she'riyatidagi tabiat manzarasi musavvirona chizish va uni shoir dardi bilan mutanosib tasvirlashdagi mahorat haqida gapirdim. Yana gap aylanib, Alisher Navoiyga taqaldi. Nurboy Jabborov domlaga imo qildik. Nurboy domla Navoiyning bir e'zalini qadim yo'sinda – ajib bir qiroat bilan o'qib qoldi. Keyin men bir she'rimgin Xitoydagi tarixini aytib (bundan o'ttiz olti yil burun kelganimda o'qiganman!), o'shani o'qishga tushdim. Biz xitoyliklarga ilgari o'zbekiyada she'rni Nurboy domladay qiroat o'qilishini tushuntirdik. Ikki taraf bir-tarza aralashib, birodarlik boshlanib ketdi va... sovg'alar ulashish daqiqalariga yetib keldik. Xitoyda ajib bir udum bor – tortiqni bir dunyo xursandlik bilan qabul qiladilar. Bizga o'xshaydilar – sharqliklarmizda! Avval majlisni olib borgan xonimga o'zbekcha ajib bir nimcha ulashildi. Nimcha singlimizga shunday yarashdi, deng! Aylanib u yog'iga qaraydi, bu yog'iga qaraydi – beqiyos xursand! Shoirga esa do'ppi-yu belbog'i bilan chopon yopadigan bo'ldik. Men unga choponni kiyyizib, belini tortib bog'lab, boshiga do'ppini mahkam o'rnatib qo'ydim. Hamkasbimning jussasi kichikroq ekanmi, to'nni ichida ko'rinmay qoldi. Ammo og'zi qulog'ida. So'ng o'zbek taomiliga qat'iy amal qilib, uni bag'rimga bosdim. Shoir ham chin ko'ngildan – ming yil ko'rishmagan do'stlarday – bor kuchi bilan yelkalarimni qisirlatib quchoqladi. Ha, suhbatdoshlarimiz ham bizga yodgorlik sovg'alari ulashdilar.

Mezbonlar bilan go'yo qarindoshlar bilan xayrlashayotganday xo'shlashdik.

Suratga tushishlar, imo-ishoralar bilan mehr-u muhabbat izhorlari... Uyg'ur olima she'rlarimni tarjima qilmoqchi ekanligini ham aytib qoldi. Albatta, amalga oshmaydi, ammo xursand bo'ldim: she'r o'qishimning ta'siri...

Ishga berilib ketib, Pekinni tomosha qilishga qo'lib tegmagan edi. Mana endi to'g'ri Xitoy imperatorining saroyi tagiga borib, to'xtadik. Ajib bir me'morlik ila ishlangan saroy arkining naq ro'parasidamiz. Avval ko'rganman, bu inshoot birgina saroydan iborat emas. Bir hovlisidan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga, uchinchisidan boshqasiga... o'tib ketilaveradi. Qaysidir bir saroyda esa bizga, albatta, xush yoqadigan – avval kelganimda ko'rganim – ikkita arslonning haykali bor. Bir go'zal imorat supasining ikki tomonida arslonlar yerga bag'ir bergancha, uzoqlarga tikilgan ko'yi, kuch-u qudratga to'lib turibdi. Bu arslonlar... "bizning" sovg'amiz! Xuddi shunday! Bilamizki, "tug'i baland erlar yurti" Baqtriyaning ramzi arslonlar bo'lgan. Baqtriya podshohi bu ikki haykalni Xitoy imperatoriga tortiq qilgan ekan. Baqtriya esa kim bo'ladi, biz-da! Bilag'on gidning og'zidan o'z qulog'im bilan eshitganman... Bugun hamrohlarimga bu haykallardan rivoyatlar aytishga o'zimni chog'lab turibman. Ammo... niyatimga yetolmadim. Saroylar ta'mirlash sababli vaqtincha yopib qo'yilgan ekan. Nachora, arkning fonida rasimga tushmoq bilan cheklandik.

*** Ertasi tong qorong'isidan Shanxayga jo'nakdik. Shanxayni "ko'priklar shahri" deyishar ekan. Aeroportdan uch-to'rt daqiqa o'tmasdan, yo'l yerdan uzilib, ko'priq ustiga chiqdi. Bu "ko'priklar" hech tugamaydi deng, yerdan uzilib, tepada qurilgan katta yo'l. Ikki tomonda daraxtlarning uchi ko'rinadi. Pastroqda ham yo'llar – bizning yo'nalishda, boshqa tomondan burilib ketadigan, bizning yo'lga qo'shiladigan. Yonimizdan poyezd o'tib ketdi. U ham yerdan uzilib qurilgan temir yo'l ustida...


Esingizda bo'lsa, Xitoy katta – Alisher Navoiyni bir joyda bilishmasa, boshqa joyda bilishar, degan edim. Buni qarangki, Shanxay universitetida buyuk shoirni bilishar ekan. Bu o'quv yurtida o'zbek tilini o'rganayotgan talabalar va ularning ustozlari bizni kutib oldilar. Davra suhbat boshlanib ketdi. Biz buyuk shoirimizning mahobatli ijodini ularga yana bir bor eslatib o'tdik. Ular shoirimizning hurmati bu joyda ijodiga yarasha maqomda ehtirom etilishi haqida axborot berdilar. Yana kitoblar tortiq qilindi. So'ng universitetning keng-u mo'l hovlisida o'rnatilgan shoir haykaliga hurmat bajo etgani qo'zg'oldik.

Hurmatli o'quvchi, ko'zingizga ishonavering! Adashmay o'qidingiz! Universitet hovlisida haqiqatdan ham Alisher Navoiy haykali salobat berib turibdi. Biz yaqin kelganimizda, yana bir qiziq ko'rinishning guvohi bo'ldik. Hazrat bir o'zlari emas ekanlar. Ularning ortida (taxminan o'n besh metrler narida) jahon daholarining haykallari, yo'q, nima desam ekan?... haykalchalari ham bor ekan. Barchasi juda mo'ljaz – tizza bo'yi – saf tortib turishibdi. Bizning buyuk shoirming haykali esa rosmna deylik, Toshkentda ko'rganimizdagi mahobatli, faqat poylariyda pedestal ozgina pastroqmiy-ey... Mutanosiblik bizni buzilganday... Ammo bunday maydachuylada e'tibor beramizmi? Ta'sirlanib ketganmiz! Xursandmiz! Mening esa xayolimda she'r aylanadi:

So'z ochsam o'zbekning mahobatidan,
Muqaddas bir kalom tilimga yordir.
Baxt yog'ar bu so'zning salobatidan:
– Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!
Hazrat haykalining poyiga rasm-rusmini keltirib, guldasta qo'yamiz. Keyin yoppa ta'zim qilamiz.... Safimizdagi navoiyshunoslarga havas bilan qarayman. Qanday yaxshi, umrlarini Navoiy asarlarini o'qib o'tkazadilar...

Keyin Shanxayning u-bu joyini aylangan bo'ldik... Ammo sezib turdim, safarimiz buyuk Alisher Navoiyning ziyorati bilan nihoyasiga yetgan edi.

2025-yil 16–22-dekabr,
Toshkent – Pekin – Shanxay – Toshkent.

Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri



YOSH IJODKORLARGA ESLATMA

Men atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning hikoyalari, adibning “Yoshlar bilan suhbat” kitobidagi qimmatli maslahat va o‘g‘itlariga tez-tez murojaat qilib turaman, ular menga ijodkorning adabiyot oldidagi mas’uliyatini eslatib turadi.

Qolaversa, men dastlab o‘qigan va xotirlab qolgan badiiy asar “O‘jar” hikoyasi edi. O‘shanda, adashmasam, 4-sinfda o‘qirdim. Badiiyotga qiziqib, bir nimalar yozishni mashq qila boshlagan kezlarning maktab darsliklaridagi G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Uyg‘un kabi mashhur shoir-yozuvchilarning suratlariga qarab havas qilar, ammo o‘sha paytda ularni qachondir hayotda ko‘raman, bir kuni mening ham hikoyalari maktab darsliklariga kiradi, degan fikrni xayolimning bir chekkasiga ham keltirmagan edim. Taqdirimdan minnatdormanki, ana shu ulug‘larimizni yaqindan ko‘rish, ularning suhbatlarida bo‘lish, min-barlarda aytgan gaplarini eshitish nasib etdi.

“Men G‘afur G‘ulomni ko‘rganman” degan mo‘jazgina xotiranomamda shoirni Yozuvchilar uyushmasi o‘tkazgan “Kulgi kechasi”da, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining foyesida ko‘rganimni bayon etganman. Oybekni ham uyushmadagi yig‘ilishlarda (bir gal uning nutqini yozuvchi Hamid G‘ulom o‘qib bergan edi), oxirgi marta Chig‘atoy qabristonida, Abdulla Qahhor dafn etilayotganda, qazilayotgan qabr-dan beriroqdagi yog‘och o‘rin-diqlardan birida umr yo‘ldoshi Zarifa Saidnosirova bilan o‘tirganida ko‘rganman. Ustoz adibning keng, zabardast yelkalarigina emas, salo-batli butun gavdasi silkinishidan qaddron do‘sti, mo‘tabar bir yozuvchidan judo bo‘lgani uchun yurak-yurakdan, unsiz yig‘layot-ganini fahmlagan edik. Bir kuni kursdoshlar bilan (Toshkent davlat universiteti filologiya fakulteti-ning to‘rtinchi kursida o‘qirdim) turganimizda, yonimizdagi durust-gina kiyingan kimsalardan biri sherigiga qarab, adib eshitadigan

darajada achingannamo “Oybek ham qarib qopti, a?” deganida, uning befarosatligidan juda achchiq-langanimiz ham kechagidek yodim-da.

Abdulla Qahhorning Yozuvchilar uyushmasidagi bir yig‘inda minbarda turib, “Menchalik mehnat qilsa, maymun ham yozuvchi bo‘lib ketardi”, degan gapidan nihoyatda hayratlanganman. Fakultetimizdagi talabalar bilan uchrashuvda uning gaplaridan ham ko‘ra, tadbirdan so‘ng tashqarida o‘rab olishgan yigit-qizlar davrasida juda bemalol suhbatlashgani, har turli savollarga erinmay, og‘rinmay javoblar berga-nida, shundoq salobatli, mahobatli, sirli (biz yoshlarga shunday tuyu-lardi) yozuvchining kamtarligiga qoyil qolganman.

Abdulla Qahhorning 1967-yili Alisher Navoiy teatrida o‘tgan 60 yillik yubileyida keyinchalik shov-shuv bo‘lgan “Ko‘plar menga siz katta idoralarning oldidan chest berib o‘tmaysiz, deb ta’na qilishadi, men partiyaning soldati emas, ongli a’zosiman”, degan gapini o‘sha zaldagilar qatori men ham o‘z quloqlarim bilan eshitgan va boshqalardek men ham yozuvchining jasoratiga tan berib, unga ixlosim yanada ortgan, shu bilan birga, bir vaqtlargacha endi nima bo‘larkin, deb xavotirlanib yurgan edim. U paytlarda bunday gapni aytish shunchaki dadilik, dangallik emas, balki haqiqatan jasorat hisoblanardi.

Yozuvchining Shukur Xolmir-zayev, O‘tkir Hoshimov kabi iste’dodli yoshlarga g‘amxo‘rlik, qo‘llov va alqov bilan yozgan xatları filolog talaba-lar orasida qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lgan. Ha, Abdulla Qahhor yuragi baquvvat shaxs, katta yozuvchi, jonkuyar ustoz edi.

Men adibning asarlarini tahlil qilishga o‘zimni haqli deb bilmayman. Qolaversa, uning ijodi to‘g‘risida yirik adabiyotshunos olimlar, aka-demiklar, taniqli hamkasblari, zamondoshlari tomonidan yuzlab

maqola va yirik-yirik monografiyalar yozilgan va ularda munosib baho berilgan.

Abdulla Qahhor hayotligidayoq klassik degan maqomga haqli ravishda sazovor bo‘lgan, chunki u tom ma’noda o‘ziga xos uslubli, hikoyachilikning, yozish san’atining piri kaloni edi. Rus yozuvchilaridan biri: “Biz hammamiz Gogolning “Shinel”idan chiqqanmiz”, degan ekan. Shu gapga muqoyasa qilib aytish mumkinki, adabiyotimiz yuksalishiga o‘zlarining turli janr-lardagi baquvvat asarlari bilan katta hissa qo‘shgan qator yozuvchilar, hatto shoirlar ham, chunonchi, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Nosir Fozilov, O‘lmas Umarbekov, Ne‘mat Aminov, Jonrid Abdullaxonov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov va boshqalar Abdulla Qahhorning keng va baquv-vat qanotlari ostidan chiqqan edi.

Abdulla Qahhorning romanchiligi va dramaturgiyasini qo‘ya turaylik-da, hikoyachiligini olaylik. Menimcha, atoqli Amerika yozuvchisi sakkizdan bir qismigina suv yuzasida ko‘rinib turadigan aysbergga qiyoslagan bu janr yozuvchimiz ijodida yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Sobiq Ittifoq miqyosidagi taniqli satirik yozuvchi Leonid Lench ustoz adibning “To‘yda aza” hikoyasi haqida shunday bir gapni aytgan ekan: “Odamning o‘limi haqida kulgili qilib yozish juda qiyin ish. Bu faqat Chexovning qo‘lidan kelardi. Faqat fransuzlar buning uddasidan chiqishardi. Hozir bizda buni eplaydigan yozuvchi kamdan kam topiladi. Buni qarangki, Abdulla Qahhor shunday qiyin ishini bemalol bajaribdi”. Yana bir taniqli olima V.Smirnova o‘z kitoblaridan birida “O‘g‘ri”, “Anor”, “Mayiz yemagan xotin” hikoyalari-ni jahon hikoyachiligining eng yaxshi namunalariga qatoriga kiritgan. Ayonki, har qanday zo‘r yozuvchi bisotida ham eng yaxshi namuna ko‘p bo‘lmaydi.

O‘ylaymanki, san’at darajasiga ko‘tarilgan yuqoridagi asarlarni va ulardan tashqari, kitobxon necha marta qayta mutolaa qilsa ham dahshatga tushaveradigan “Dahshat” hikoyasini o‘qiganida, Gogol ham, Chexov ham, zakiy adabiyotshunos va adib Fitrat domla ta’biri bilan aytganda, Abdulla Qahhor yonidan shlyapalarini qo‘l-lariga olib, ta’zim bajo etib o‘tgan bo‘lard.

Abdulla Qahhorning eng yaqin shogirdlaridan biri, ustoz kabi ko‘plab yosh ijodkorlarning boshini silagan Nosir Fozilov shunday deb yozadi: “Hikoya janrida Abdulla Qahhorning yetukligi, uning qanday yozuvchi ekanligi haqida gapirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak... Nazarimda, u kishining har bitta kichik hikoyasining o‘zi bir olamga, katta janrdagi bir asarga tatigulik”.

Xo‘sh, adib shunday ixchamlik va bir so‘z bilan ko‘p ma’noni ifodalashga, filologiya fanlari dok-tori, adabiyotshunoslik ilmining peshvolaridan biri Matyoqub Qo‘sh-jonov aytganidek, jumlaridan biron so‘zni almashtirib bo‘lmaydigan mahoratga qanday erishgan? Yana ulug‘ munaqqid yozadi: “Abdulla Qahhorni yozuvchilarimiz ichida so‘zga eng mohiri deydlar. Bu gap hech kimda shubha tug‘dirmasa kerak. So‘zlarni ma’nodor qilib ishlatishda, ixcham jumlagga katta mazmun bag‘ishlashda, fikrni lo‘nda va aniq qilib bera bilishda Qahhor o‘z safdoshlari ichida faxrli o‘rinni egallaydi”. Ishtiboh yo‘qki, hali-hamon shunday.

Men kichik bir hikoyasi yo bir sahifaga yetmaydigan she’rini ham nari borsa ikki-uch bora ko‘chiradigan va o‘zining omadsizligidan nolib yuradigan qalamkashlarga Abdulla Qahhor bilan bog‘liq yana bir voqeani eslatgim keldi. Uning do‘kondan bir qo‘ltiq qog‘oz sotib olganini ko‘rgan hamrohi: “Abdulla aka, yangi roman boshlanibdi, shekilli-a?” deya o‘smoqchilaganida, yozuvchi: “Bu



qog‘oz bitta hikoyaga yetsa ham katta gap”, deya javob bergan ekan.

Yuqorida Abdulla Qahhorning ijod jarayonida qanday mehnat qilishi xususidagi e’tirofini keltirib o‘tdik. Adib “Bir xatga javob”ida o‘sha fikrini davom ettirib yozadi: “Men yozilgan jumlan, hatto, sahifani ham ustidan tuzatolmayman. Jumla, hatto butun bir sahifadagi bir so‘zni o‘chirib, o‘rniga boshqasini yozish uchun boshqa qog‘ozga o‘sha jumla, hatto sahifani ko‘chirib yozaman. Bir sahifani o‘rta hisob bilan 15-16 marta ko‘chiraman, shubhasiz, har safar sahifaga sayqal beraman”.

Bularning barchasi, adibning o‘ziga nisbatan nihoyatda talabchanligi va badiiyotni muqaddas deb bilganiga, naridan beri yozilgan bo‘lar-bo‘lmas narsalar bilan adabiyotning qadrini tushirib yuborishga hatto o‘zi kabi tajribali yozuvchining ham haqqi yo‘qligiga, ixchamlik, asarning pishiq-puxtaligi, tildagi milliylik, dialoglardagi o‘ta hayotiylik va jonlilik, kitobxon ko‘z oldida muhrlanib qola-digan xarakterlar yaratish mahorati va barhayotligidayoq klassik marta-basiga erishishning siri ana shu o‘n martalab qayta ishlash va qayta ko‘chirishlarda, romanga yetgulik qog‘ozni bir hikoya uchun saranjom qilib, ayovsiz zahmat chekishda ekanligiga ishora, dalil edi.

Ustoz adibning o‘z davrida istab-so‘rab o‘qilgan “Yoshlar bilan suhbat” kitobidagi quyidagi so‘zlarini ijod havasida yurgan yoshlarimiz va

boshqalar ham mag‘zini chaqib, ulardan zarur xulosalar chiqarib olsa, o‘zlari uchun ham, adabiyotimiz kamoli uchun ham foydadan xoli bo‘lmaydi, deb o‘ylayman: “Adabiyotimiz tarixida shunday hodisalar bo‘ladi: yozuvchi bitta asar yozadi-yu, maqto‘v kutib atrofga qaraydi, hech kim e’tibor qilmasa, xarxasha boshlaydi, nima uchun men falon ro‘yxatda yo‘qman?... Nima uchun falon tanqidchi meni ko‘tarmaydi? Yozuvchini hech qachon, hech kim ko‘tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlari ko‘taradi, yaxshi yozuvchi ko‘tarilib ketganini hatto o‘zi ham bilmay qoladi”.

Abdulla Qahhor qalbi, butun vujudi bilan adabiyotning shaffofligi, mavqeyi, sharafini iste’dodsizlardan, xom-xatala asarlardan muhofaza qilib turadigan qalqon edi. Shu bois, talabni qattiq qo‘yardi, ya’ni bola tarbiyasiga uzoqni ko‘zlab, faqat oila uchungina emas, balki jamiyat uchun ham muhimligini o‘ylab qattiqqo‘llik bilan yondashadigan ota misoli edi. Obrazli qilib aytsek, adabiyot maydonini xas-xazonlardan tozalab turadigan sarishta bog‘bon edi.

Yozuvchi “kitobxon oldida har bir jumlasini uchun javobgarligi” to‘g‘risidagi e’tiqodiy aqidasiga va boshqa talablariga avvalo o‘zi rioya qilgani va o‘zgalarni ham shunga da’vat etgani uchun ham, uning ijodi o‘rganish va saboq maktabi, malaka ibrat bo‘lib qolaveradi.

Qamchibek KENJA

OYDINLAR

Filologiya fanlari doktori, professor, “Do‘stlik” ordeni sohibi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Nurboy Jabborov oltin yoshga to‘ldi. G‘alvirmi, yo‘q, balki to‘rni suvdan ko‘taradigan yosh. To‘g‘rimi? To‘rga kam baliq ilingan bo‘lsa, u yengilgina tortiladi. Ko‘p baliq tushgan bo‘lsa-chi?

Tomir. Bir gal taniqli adabiyotshunos va san’atshunos Shuhrat Rizayev Nurboy domlaning Dehqonobod tumanidagi Otkamar qishlog‘ida yashovchi 100 yoshga yetgan otasi Abdulhakim bobo ziyoratiga borganini: “Ana nuroniylilik, mana donishmandlik! Ana ilm-ma’rifat, mana fahm-farosat! Ana imyon, mana e’tiqod!” deya hayajon bilan so‘zlab bergan edi.

Eshitib quvondim-u, ajablanmadim. Har holda, qariyb qirq yillik ijod davomida 815 nomda ilmiy, ilmiy-ommabop va ilmiy-publitsistik material e’lon qilish shunchaki oddiy odamning ishi emas. Kamiga shundan o‘nga yaqini – monografiya yoki risola bo‘lsa. Tomiri baquvvat bo‘lmagan daraxtdan mo‘l hosil olinmaydi-da.

Yo‘l. Hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida talaba, orada ikki yil armiya xizmati, O‘zFA Hamid Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutida katta laborant, aspirant, ilmiy xodim, hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida doktorant, O‘zMUda dotsent, kafedra mudiri, O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani va 2017-yildan hozirga qadar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasini mudiri... Bular – olimning asosiy mehnat faoliyati haqidagi ma’lumotlar.

Muvozana. Katta yo‘llarning ikki biqinida muvozana – parallel ravishda kichik yo‘llar ham bo‘ladi. Olimlarning o‘rindoshlik asosidagi ishlarini o‘shalarga mengzash o‘rinli. Jamiyat faol olimdan haddi a’losida foydalanishga harakat qilaveradi.

Noshirlik savobi. U nashrga tayyorlagan mumtoz adabiyot namunalarini, uning to‘plovchiligi, muharrirligi yoki taqrizchiligidagi chop etilgan ilmiy to‘plamlar ham salmoqli. Rosti gap, hatto o‘zing yozgan narsalarni to‘plab, tartibga solib, bir kitob holiga keltirish – ancha mashaqqatli ish. Ko‘plar eringanidan



o‘z bitiklarini to‘plamlay qilib ulgurmaydi ham. Shunday ekan, olimning Abu Homid G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy, So‘fi Olloyor, Ogahiy, Furqat, Muqimiy, Ibrat, Abdulloh ibn Mas’ud, Mullo Olim Maxdum Hoji, Sharif Yusupov, Begali Qosimov va boshqalar asarlarini, “Bobo Ravshan” xalq dostonini nashrga tayyorlaganidagi mehnatning miqyosini ko‘z oldingizga keltiring. Yana qancha-qancha kitobga muharrir, taqrizchi, so‘zboshi muallifi bo‘lgan.

Shogirdparvarlik. Olimlarning hammasi ham shogirdparvar bo‘lavermaydi. Bir dissertatsiya ishiga ilmiy rahbarlik qilish uchun ham xayrixohlik, bag‘rikenglik, sabr-bardosh, eng muhimi, vaqt ajratish kerak.

Yaqinda rektorlar ishtirokidagi bir jiddiy yig‘ilishda professor Baxtiyor Mengliyevning 78 nafar shogirdga ilmiy ish yoqlattirgani, shuning 21 nafari fan doktori ekanini aytilganda, butun xalq qarsak chalib yubordi. Axir, u mamlakatga shuncha kadr tayyorlab bergan-da.

Bu borada Nurboy domla ham peshqadam ustozlardan. Shu paytgacha uning ilmiy rahbarligida 8 fan doktori, 6 fan nomzodi, 23 falsafa doktori va 75 magistrlik ishlari

NURDAN YARALSA BOYLIK...

yoqlandi. Dissertatsiyaga rasmiy opponent bo‘lish ham jiddiy, mas’uliyatli ish. U 9 doktorlik, 6 nomzodlik va 29 falsafa doktorligi dissertatsiyasiga rasmiy opponent bo‘ldi.

Navoiyshunoslar tasnifi. Kamina olim-larga ikki nuqtayi nazardan qarayman: akademiya tizimidan chiqqan olimlar va akademiya tizimini ko‘rmagan olimlar. Navoiyshunoslarimizni ham shartli ravishda uch toifaga ajratamiz. Birinchi toifaga Navoiy ijodi bo‘yicha ham nomzodlik, ham doktorlik dissertatsiyalari yoki ulardan birini yozib yoqlaganlar (A.Hayitmetov, H.Sulaymonov, A.Abdug‘afurov, S.G‘aniyeva, Y.Is’hoqov, M.Muhiddinov, Q.Ergashev, Sh.Sirojiddinov, O.Davlatov, M.Asadov, H.Eshonqulov va boshqalar) kiradi. Ikkinchi toifaga nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasida, jumladan, Navoiy ijodini ham o‘rganganlar (R.Orzibekov, I.Haqqulov, A.Bagirov va boshqalar)ni kiratamiz.

Nurboy domla uchunchi toifaga kiradi. Bular – nomzodlik yoki doktorlik disser-tatsiyasi boshqa davr adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lsa ham, keyinchalik qiziqib, Navoiy ijodini o‘rganish bilan ham shug‘ullanganlar (A.Qayumov, N.Komilov, B.Qosimov va boshqalar).

Nurboy Jabborovning “Maoniyl ahlining sohibqironi” monografiyasi ham navoiy-shunoslikka bag‘ishlangan. O‘zbek tilida ikki karra chop etildi, keyinchalik fors tiliga o‘girilib, Eronda ham bosilib chiqdi.

Tahririyat maktabi. Ilm va jurnalistika. Bu ikkalasi bir narsa emas, albatta. Ba’zilar jurnalistika bilan ilmiy bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishni ko‘p yaxshi ko‘radi. To‘g‘ri, fanda jurnalistik ommaboplik, batafsillik yoki mafkuraviylik ketmaydi. Biroq fikrni puxta-pishiq, tushunarli, ravon ifodalash borasida ilm ahli jurnalistikadan ko‘p-ko‘p narsa o‘rganishi kerak va zarur. Chunki ommaviy axborot vositalarida fakt yo fikrni qanday tarzda taqdim etishning ahamiyati juda katta. Keyin tahririyatlarda tahrir san’atini egallaysiz. Ilmiy ishlarda ko‘pincha aynan shu ikki narsa yetishmaydi.

Nurboy domlaning o‘rindoshlik asosida “Fidokor” gazetasida bo‘lim mudiri, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida bo‘lim mudiri, bosh muharrir o‘rinbosari, “Tafakkur” jurnalida bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlagani uning qalamini toza charxladi.

Din ilmi. Bir gal ustoz Abdug‘afur Rasulov domla bilan Samarqand davlat universitetiga ilmiy-amaliy anjumanga borib keldik. Yo‘lda: “Sizga bir nozik savolim bor. Mana, ustozingiz Najmiddin Komilov ham, siz ham, falonchi ham Navoiy ijodini tahlil qilib, maqolalar yozasizlar. Orada farq, boringki, qarama-qarshilik yo‘qmi?” deb so‘radi. Bu savol bekorga berilmagan edi. Birinchidan, bu uch tadqiqotchi matbuotda bir-biriga qarshi hech narsa yozmaydi. Ikkinchidan, o‘sha kezlari domlani o‘z kafedradoshlari matbuotda ko‘p urib chiqqan edi.

Albatta, o‘zing bilan bevosita bog‘liq savolga ochiq-sochiq javob berib bo‘lmaydi. Har xil talqin etilishi mumkin-da. Ikkinchidan, mumtoz adabiyot tadqiqotchilari sirini zamonaviy adabiyot tadqiqotchisiga oshkor etishdan ne naf bor? Oradagi farqlarning hammasini aytgim kelmadi. Biroz o‘ylab olib: “Navoiyga munosabatda ustoz Najmiddin Komilov bilan kamina qarashlari o‘rta-sida g‘oyaviy-mafkuraviy qarama-qarshilik yo‘q. Biz u kishining maktabidan chiqqan shogirdmiz. Lekin uchunchi tadqiqotchining Navoiyga munosabatlarida diniy-irfoniyl bilim ozlik qiladi”, dedim. Kutilmagan bu javobdan keyin ustoz bir lahza ko‘zni yumib olib, o‘yladilar-da: “Tushundim. Zo‘r javob bo‘ldi. Qolgan hamma jihatlar shuning ichida ekan”, dedi rahmatli.

Nurboy domla raisligida o‘tkazilgan bir muhokamada qatnashishga to‘g‘ri keldi. Bir olim ishga sal boshqacharoq yondashdi. Oylar o‘tib, bir izdihomda ikkalamiz ko‘rishib qolib, o‘sha yig‘ilishni eslashdik. “O‘shanda xato pozitsiyada turildi. Akaning diniy-irfoniyl bilimi pastligi bilinib qoldi”, dedi. Bu shunchaki gap emas. Ming yillik o‘zbek yozma adabiyoti tadqiqotchisining

diniy-tasavvufiy bilimga ega bo‘lmashligi adabiy asarning tub mohiyatini to‘g‘ri va to‘la anglab yetmaslikka olib keladi. Buning yoniga aruz ilmini puxta bilishni ham qo‘shamiz.

“Madaniyat va ma’rifat” telekanali bir debat o‘tkazdi. Nurboy domla bilan ikki qarama-qarshi tarafga tushib qoldik. Kamina maktablar va filologiya yo‘nalishida kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida aruz yaxshi o‘qitilmasligini pesh qilaverdim. Kazo-kazo xonandalar, manaman degan suxandonlar ham aruzni buzib ijro etayotganiga misollar keltiraverdim. Nurboy domla dekan sifatida oliy ta’lim tizimida aruz yaxshi o‘rgatilayotganini ta’kidladi. Oxiri gap aylanib o‘tgan asrlarda bobo-momalarimiz aruzni bir kabi she’r tarzida emas, ashuladay qilib o‘qigan haqida ketdi. Shunda domla bir jo‘shdi-ku: aruziy g‘azallarni bir asr burungi qiroat usullariga solib, barni o‘qidi, bir o‘qidiki...

Diniy-tasavvufiy bilimlarga egaligi uchun u “Maoniyl ahlining sohibqironi” monografiyasida “Alisher Navoiy va islom ma’rifati”, “Futuvvat g‘oyasi va fatiy abrazi”, “Arba’in”da ma’rifiy mazmun va badiiy shakl mutanosibliyi”, “Siroj ul-muslimin”da fiqh masalalarining badiiy ifodasi” kabi fasillarni yozdi.

Rag‘bat. Nurboy Jabborov davlat mukofotlaridan tashqari, O‘zbekiston Fan-lar akademiyasi, Ozarbayjon Milliy ilm-lar akademiyasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va boshqa nufuzli tashkilotlarning mukofotlari bilan taqdirlangan, respublika tanlovlari g‘olibi bo‘lgan. Albatta, bu e’tiroflar zamirida qanchadand qancha mehnat va mashaqqat yotganini tushungan tushunadi.

Kafolat. 60 yoshga kirgunga qadar erishilgan bu yutuqlar, qilingan shuncha katta ishlar olimning kelajakda bundan ham ko‘p va xo‘b tadqiqotlar yaratishi uchun kafolat beradi. Biz bunga ishonamiz.

Sultonmurod OLIM, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi



USTUNLIKKA ERISHISH OMILI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat dastur haqida atroflicha to'xtalib o'tdi. Ulardan biri – kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozorini yaratishdan iborat.

O'zbekiston Prezidenti: “Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin”, deya ta'kidladi. Murojaatnomada belgilab berilganidek, endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur. Bu yo'lda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashga e'tibor kuchaytiriladi. Maqolada ushbu sohada amalga oshirilgan ishlar va kelgusida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Oliy ta'limda innovatsiyalar seleksiyasi

Oliya ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishdagi rolini qanday qilib kengaytirish va samaradorligini oshirish mumkin? Bu savol ta'lim sohasi mutaxassis-lari barobarida, iqtisodiyot, sanoat va texnologiya sohasi vakillarini ham qiziq-tirmoqda. Zamonaviy dunyoda, global raqobat sharoitida universitetlar nafaqat bilim uzatuvchi, kelajak iqtisodiyotini shakllantiruvchi, yangi texnologiyalarni yaratuvchi va tadbirkorlik ko'nikmalarini singdiruvchi markazlarga aylanmoqda. Bunday progressiv tendensiyaga biz ham faol qo'shiliшимiz zamon talabidir.

Universitetlarimiz o'zlarining ta'lim berish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek “uchinchi missiya”si – iqtisodiy qiymat yaratish vazifasini yanada samarali bajarishi muhim. Bu mamlakat iqtisodiyoti raqobatdoshligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, “Amazon” kompaniyasining yillik daro-madi hozirgi kunda 500 milliard AQSH dollaridan oshadi – bu ayrim davlatlarning YIMdan ham yuqori ko'rsatkich. Jahon texnologik gigantlari aynan universitet muhitida tug'ilgan dastlabki kichik loyihalardan boshlangan. Biz ham iqtidorli talabalarimizning innovatsion fikrlashidan to'liq foydalanish uchun zarur ekotizimni rivojlantirishimiz mumkin-ku!

Stenford, Harvard, Massachusetts texnologiyalar instituti kabi dunyoning yetakchi, peshqadam oliygohlari atrofida shakllangan “Silikon vodiysi” butun dunyo texnologik taraqqiyotiga yo'nalish bermoqda. Bu – ta'lim va innovatsiyaning uyg'unligi hosilasidir. Biz ham shu muvaffaqiyatli tajribadan xulosa chiqarib, turli mintaqalarda innovatsion markaz-larni rivojlantirish orqali sezilarli natija-larga erishishimiz lozim. Talabalarimizga nafaqat kitobiy ma'lumotlar berish, balki ularni real hayotda qo'llash, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratish ko'nikmalarini rivoj-lantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Study in Uzbekistan”: diplomlarimizning qiymati qanday?

Biznirbqatorsavollaro'ylantiradi. Bugun dunyoda texnologiya va innovatsiyalar tobora shiddat olib borayotgan bir paytda, mamlakatimiz ming yillik ilm-fan an'analari, buyuk allomalar yurti bo'lsa-da, mehnat bozorida “xomashyo” eksportchisi bo'lib qolmayapmizmi? Xorijiy ish beruvchilar nazari bilan qaraganda, o'zbek diplomi kerakli qiymatga egami? O'zbek farzandlarining aql-zakovati, mehnatsevarligi dunyoga ma'lum. Ta'lim tizimimiz ularni zamonaviy dunyoning mehnat bozoriga to'g'ri tayyorlayaptimi?

Bugun biz kabi mehnat resurslariga boy davlat – Filippinni olib qaraydigan boy davlat, bu mamlakat xalqaro mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashib, o'z ta'lim tizimini shunga yo'naltirgan. Natijada har yili millionlab filippinlik



(Ikkinchi maqola)

dunyoning turli burchaklarida o'rtacha va yuqori malakali mutaxassis – malakali hamshira, dengizchi, muhandis, o'qituvchi, mehmonxona xodimi, Ay-Ti mutaxassisi sifatida ish topmoqda. Bu ishchi o'rinlar milliardlab dollar valyuta tushumini ta'minlaydi.

Biz O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqmoqchi ekanmiz, mutaxassislarimizning xalqaro nufuzini ko'tarishimiz shart. Zamonaviy dunyoda “o'zi-mizga yarasha” diplom emas, xalqaro miqyosda tan olinadigan malaka, bilim va ko'nikmalar muhim.

World Economic Forum tashkilotining hisobotiga ko'ra, yaqin kelajakda eng talab qilinadigan sohalar – bu informatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va kiberxavfsizlikdir. Demak, farzandlarimizga bu sohalarida raqobatdosh ta'lim berish davr talabidir.

OTM faoliyatini baholashda bitiruvchilari xorijiy kompaniyalarda ish topa olishi asosiy mezonlardan biri bo'lishi kerak. Bu ularni ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirib borishga, xalqaro standartlarga intilishga undaydi. Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy universitetlari aynan shu yo'ldan borib, bugun dunyoning eng nufuzli ta'lim muassasalari qatoriga ko'tarildi. Ular bitiruvchilarining xalqaro kompaniyalarda ishga joylashish foizini muhim mezon sifatida qabul qilgan.

Oliy ta'lim: tarbiya davom etadimi?

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ko'p muhokama qilinadigan, turli bahs-munozaralarni yuzaga keltiradigan, jamoatchilik e'tiborini tortadigan masalalardan biri – tarbiyaviy funksiyaning o'rni. Bu mavzu atrofida uzoq yillardan buyon turli qarash va yondashuvlar o'rta qatnashmoqda. Ayniqsa, axborotlashuv jarayonlari tezlashgan, madaniyatlararo aloqalar kuchaygan, yoshlar orasida turli g'oya va qarashlar tarqalib borayotgan sharoitda ma'naviy asoslarimiz va zamonaviy ta'lim tendensiyalari o'rtasidagi muvozanatni saqlash alohida dolzarb masaladir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalarida Ma'naviyat va yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor lavozimi, shuningdek, tegishli bo'lim va markazlar mavjud, ularning asosiy vazifasi talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borish, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Biroq, xalqaro tajribaga, rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga nazar tashlasak, dunyoning eng nufuzli, TOP-100 yoki TOP-500 reytingidagi universitetlarida, Amerika, Yevropa, Osiyo mamlakatlarining yetakchi oliy o'quv yurtlarida maxsus ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi, tarbiya ishlari uchun ajratilgan prorektor mavjud emasligi, bunday amaliyot keng tarqalmaganini ko'ramiz.

Dunyoning yetakchi akademik markazlari talabalarni birinchi navbatda yuqori kasbiy mahorat, chuqur bilim va ilmiy salohiyatni oshirishga, innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yo'naltiradi. Ularda ma'naviy-axloqiy tarbiya, shaxsni rivojlantirish boshqa mexanizmlar – universitet qadriyatlar, institutsional madaniyat, etik normalar, akademik halollik prinsiplari, axloq kodekslari, talabalar uyushmalari, klublari, ixtiyoriy ijtimoiy xizmatlar, ko'ngillilik dasturlari orqali amalga oshiriladi, bular

talabalarning o'z tanlovi va qiziqishlariga asoslanadi.

Afsuski, ta'lim tizimimizda tarbiya tushunchasi tor doirada talqin qilinib, asosan rasmiy, ba'zan yuzaki tadbirlar o'tkazish bilan cheklanib qolmoqda. Har hafta, har oy reja asosida yoki turli ko'rsatmalar bilan o'tkaziladigan bunday tadbirlar talabalarning qimmatli vaqtini olib, ularni asosiy vazifasi – chuqur bilim olish, ixtisoslik bo'yicha o'zini takomillashtirishdan chalg'itadi. Shu bois, ko'pincha talabalar bunday tadbirlarga o'z xohishlaridan tashqari jalb qilinadi.

Ayni masalada bugun mutaxassislar o'rtasida bahslar kechmoqda: tarbiya funksiyasini, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bosqichlariga berish, oliy ta'lim bosqichida yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish maqsadga muvofiq emasligi? Boshqacha aytganda, deylik, bugun odobli injenerdan ko'ra, chuqur bilimga ega mutaxassisga talab ancha kuchli. Albatta, bu ma'naviy-axloqiy tarbiyadan voz kechish, uning ahamiyatini inkor etish kerak, degani emas.

Ma'naviyat har qanday millatning, ayniqsa, biz kabi o'z an'analarga asoslangan jamiyatning asosiy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi. Biroq uni zamonaviy shakllarda, talabalarning kundalik o'quv jarayoniga tabiiy ravishda uyg'unlashgan, jozibali formatlarda tashkil etish zarur.

Harbiy ta'lim mas'uliyatni tarbiyalaydi

Bugun dunyoning turli mintaqalarda yuz berayotgan mojarolar, geosiyosiy vaziyatning beqarorligi sharoitida yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi, xususan, maktablarda boshlang'ich harbiy tayyorgarlik, oliy ta'lim muassasalarida zaxiradagi ofitserlar, zobitlar tayyorlash bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar o'rtasida harbiy tayyorgarlik tizimli va uzluksiz olib borilishi lozim. Bu jarayon jismoniy chiniqish bilan birga, harbiy strategik fikrlashni rivojlantirish va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi va talabalarda intizom, javobgarlik hissi, jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham harbiy tayyorgarlik muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari – bo'lajak rahbar va mutaxassislar harbiy bilimlarga ega bo'lishi juda muhim. Chunki ular kelajakda turli sohalarida yetakchi vazifalarda ishlash, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik jarayonini zamonaviy texnologiyalar, innovatsion usullar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish zarur. Bunda nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlarning mutanosibligiga erishish, real vaziyatlarga yaqin simulatsiyalarni qo'llash, zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy texnikalar bilan tanishtirish, axborot xavfsizligi va kibermudofaa masalalariga e'tibor qaratish bugungi kun talabidir.

Mafkuraviy kompetentlik va media savodxonlik

Ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha insonlar yoshlarining mafkuraviy immunitetini oshirish

zarurligini uqtiradilar. Bu masala nima uchun dolzarb? Chunki hozirgi zamonada mafkuraviy tahdidlar nafaqat harbiy yoki iqtisodiy, axborot maydonida ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. Milliy kadrlarni tayyorlashda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy mentalitetni rivojlantirishga xizmat qiladigan institutsional strukturaviy mexanizmlarni joriy qilish, nazariy amaliyotni ishlab chiqish kerak. Yoshlar turli axborot manbalaridan kelayotgan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qila bilishi, soxta axborotdan haqiqiyini ajrata olishi zarur.

Media saboqlari fanlar orasida “yashiringan” holda emas, mustaqil, tizimli ravishda o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda uzluksiz ta'lim tamoyillarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda media savodxonlik asoslari berilib, o'quvchilarga axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash, axborot xavfsizligining dastlabki qoidalarini o'rgatilishi dakor. O'rta sinflarda media savodxonlik bilimdonlik darajasiga ko'tarilib, o'quvchilar turli media kanallari bilan ishlash, axborotni tahlil qilish, raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari kerak.

Yuqori sinflarda media kompetentlik shakllanib, o'quvchilar axborotni tanqidiy tahlil qilish, media makonda o'zini ifodalay olish, mas'uliyatli kontent yaratish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Oliy ta'limda bu ko'nikmalar media madaniyatni darajasiga ko'tarilib, talabalar ijtimoiy tarmoqlarda faol pozitsiyani egallash, professional media kontent yaratish, axborot xavfsizligi strategiyalarini ishlab chiqish, ijtimoiy masalalarni media orqali hal qilish kabi yuksak malakalarga ega bo'lishlari dakor.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, media ta'lim yo'nalishida milliy qadriyatlarimiz, diniy ta'limotlar, umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarashni uyg'unlashtirish muhim. Media ta'lim – bu faqat zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish emas, uni ma'naviyatimiz, milliy o'zligimizni saqlagan holda qo'llay olish ko'nikmasi hamdir.

Yoshlar ma'naviyati mukammal bo'lsin

Insoniyat tarixining bugungi davri o'zining murakkabligi, ziddiyatlarga to'laigi bilan avvalgi zamonlardan tubdan farq qiladi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniy chegaralarning shartliliigi kabi omillar inson ongi, ruhiyati va ma'naviy dunyosiga ta'sir qiluvchi vositalarni mislsiz ko'paytirib yubordi. Bunday sharoitda, ayniqsa, yoshlar shaxsiyatining shakllanishi murakkab kechmoqda.

O'zbek yoshlari orasida butun dunyo yoshlari kabi zamonaviylashish, dunyo bilan hamnafas bo'lishga intilish mavjud, bu tabiiy hol. Biroq bu jarayon ayrim hollarda milliy o'zligini yo'qotish, otoboblar asrlar davomida saqlab kelgan qadriyatlarni mensimaslik hisobiga amalga oshayotgani tashvishlidir. O'ziga xos sharqona hayo, andisha, kattalarga hurmat, oilaparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni o'rnini g'arb madaniyatidan kirib kelayotgan individualizm, pragmatizm, iste'molchilik psixologiyasi, sabrsizlik egallab bormoqda. Telefonda soatlab o'tirib, lekin yonidagi ota-onasi bilan ikki og'iz gaplashmaydigan, o'z oilasidan ko'ra ijtimoiy tarmoqlardagi “do'st”lari bilan ko'proq muloqot qiluvchi, to'y-ma'rakalarda qo'lida telefon bilan o'tirib, ajdodlarimizdan qolgan udumlarga befarq bo'lib qolayotgan yoshlarimiz ham, afsuski, yo'q emas.

Axborot makoni ochiqligi, internetdan istalgan ma'lumotni olish mumkinligi yoshlarning turli oqimlar ta'siriga tushib qolish xavfini kuchaytirmoqda. Diniy ekstremistik tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlar, maxsus kanallarda o'z g'oyalarini tarqatib, yoshlarni chalg'itib, og'dirib olmoqda. Yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy immuniteti yetarli darajada shakllanmagani, hayotda o'z o'rnini topa olmagan, axborot oqimining ko'pligidan oqni qoradan ajrata olmasligi bunga sabab bo'lmoqda.

Ayrim yoshlar kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlari, mazmunan sayoz musiqa va filmlar bilan vaqt o'tkazishni xush ko'radi. Ular bugungi raqamlashgan

dunyoda – hamma narsa tugmachani bosish bilan hal bo'ladigan davrda mutolaadan, ichki ma'naviy izlanishlardan uzoqlashmoqda. Unutmaylik, kitob o'qish – bu shunchaki axborot olish emas, balki inson qalbi, ruhi, tafakkurini shakllantiradigan, boyitadigan jarayondir. Shu bois, davlatimiz tomonidan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yechim nimada?

Fikrimizcha, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va ta'limga kompleks yondashuv lozim. Bu borada oila, mahalla mutasaddilari, profilaktika inspektori, masjid imom xatibi, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo'mitasi va ta'lim muassasasi hamkorligini kompleks chora-tadbirlar asosida amalga oshirish talab qilinadi. Ayniqsa, har bir mahalla kesimida “xavfli guruh”ga mansub yoshlarni aniqlab, ular bilan individual tarzda ish olib borish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, san'at, mehnatga jalb etish choralarini ko'rish kerak.

Ikkinchidan, ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy sohada kompleks reja bajarilishida bosh yetakchi bo'lishi, muassasa rahbarining lavozimga loyiqligi nafaqat uning kasbiy malakasi, ma'naviy-axloqiy fazilatlari, shaxsiy namunasi bilan ham belgilanishi zarur. Rahbar kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan birga, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, vatanparvarligi, milliy qadriyatlarga sodiqligi, ma'naviy-axloqiy fazilatlari ham hisobga olinishi kerak.

Uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini aniqlovchi mezonlar tizimini ishlab chiqish lozim. Natijalar doimiy ravishda tahlil qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilab borilishi muhim. Bu mezonlar yoshlarning real hayotdagi xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni baholashga qaratilgan bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, yoshlar sog'lom dunyoqarashga ega bo'lishi uchun ularni erkin va mustaqil fikrlashga, oq-qorani ajrata olishga o'rgatishimiz lozim. Bu borada media ta'limni kechiktirmay joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, rahbarlar, o'qituvchi va murabbiylarning ma'naviy yetukligi va pedagogik salohiyatiga baho berib, ularning mafkuraviy kompetentligini talab darajasida shakllantirishimiz kerak. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib boruvchi xodimlar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etib, ularning pedagogik mahorati, psixologik bilimlari, ma'naviy salohiyatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish lozim. Yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, ularning ijtimoiy mavqeyini ko'tarish, jamiyatda nufuzini oshirish ham, albatta, muhimdir.

Oltinchidan, milliy g'oya asosida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning davr talabiga mos samarali mexanizmini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiyaga joriy qilish, milliy qadriyatlarni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish, milliy o'zlikni saqlagan holda, dunyo bilan hamqadam bo'lish, yoshlarni global jarayonlarda faol ishtirok etishga yo'naltirish lozim.

Albatta, bu fikrlar o'z mehnat faoliyatining aksar qismini ta'lim sohasiga bag'ishlagan kishining subyektiv qarashlaridir. Bu mulohazalar ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shish istagidan kelib chiqqan bo'lib, sohada yillar davomida shakllangan kuzatuvlar asosida ifodalangan.

Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans asoslarini yaratish maqsadida ta'lim tizimimizni yangicha ruhda qurishni boshladik, endi ortga yo'l yo'q. Islohotlar yo'lida turli qiyinchiliklar, to'siqlar bo'lishi mumkin, ammo ularni sabr-matonat bilan yengib o'tishimiz, maqsad sari intilishimiz lozim. Zamonaviy, moslashuvchan va ta'sirchan tizim yaratish o'z qo'limizda. Bunda har bir ta'lim muassasasi, har bir o'qituvchi, har bir talaba va ota-ona o'z hissasini qo'shishi zarur. Faqat birgalikda, yelkama-yelka turib, ta'limni yangi bosqichga ko'tara olamiz.

Shukritdin PAXRUTDINOV,
siyosiy fanlar doktori,
professor



SARHISOB

BUNYODKOR YURT MANZARALARI



O'zbekiston keng ko'lamli islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lid an bormoqda. Bu jarayonda qurilish va urbanizatsiya sohasi mamlakat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan briga aylandi. 2025-yilda ham ushbu yo'nalishda strategik ahamiyatga ega bir qator yirik loyihalar ishga tushirildi. Ular nafaqat mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, balki aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilashga, shaharsozlik madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

E'tibor bering, bu yil jami 35 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiya evaziga 9 mingga yaqin yangi korxona, xizmat ko'rsatish majmualari barpo etildi. Eng ulug' bayramimiz arafasida 4 milliard dollarlik 79 ta yirik obyekt ishga tushirildi. So'nggi yillarda yurtimiz ulkan bunyodkorlik maydoniga aylanib, ko'plab turar joylar, ishbilarmonlik markazlari, korxonalar, xiyobonlar barpo etildi.

Endilikda urbanizatsiya jarayonlarida uzoqni o'ylab, qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshirilayotgani e'tiborli. Ulardan eng muhimlari – Olimpiya shaharchasi va Yangi Toshkent loyihasidir. Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, O'zbekistonni chinakam sport mamlakatiga aylantirish maqsadida Olimpiya shaharchasi barpo etildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta zamonaviy ta'lim beradigan futbol akademiyasi qad ko'tardi. Sport arxitekturasining noyob durdonasi bo'lgan ushbu majmualar minglab bo'lg'usi chempionlarimiz uchun yuksak parvoz maydoniga aylanishi, shubhasiz.

2017-yilda 4 mingdan ortiq mahallada birorta ham bolalar bog'chasi yo'q edi, qamrov 27 foizdan oshmasdi. Bugungi kunda bog'chalar soni 38 mingdan, qamrovi esa 78 foizdan oshdi. Yaqinda e'lon qilingan yangi imtiyoz va imkoniyatlar natijasida maktabgacha ta'lim kirib bormagan birorta mahalla qolmaydi, qamrov ham 80 foizdan kam bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 11-noyabr kuni Yangi Toshkentda yirik sport inshooti – zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimida ishtirok etdi. So'nggi besh yilda mamlakatimiz futbol sohasida tub burilish davri bo'ldi. Jumladan, mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilinib, bolalar va o'smirlar akademiyalari tashkil etildi. Hududlarda 75 ta katta va 302 ta mini stadion faoliyat ko'rsatmoqda. 2017-yilda yurtimizda FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi talablariga javob beradigan maydonlarning soni atigi 3 ta edi, bugun ularning soni 10 tadan oshdi. Yaqinda Yuqori Chirchiq tumanida zamonaviy Milliy futbol markazi qurib bitkazildi. Futbol maktablarida 65 mingdan ortiq yoshlar mashg'ulot o'tkazmoqda. Ushbu maktablarga jahonning nufuzli futbol klublaridan trenerlar, sport tibbiyoti va farmakologiyasi bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan.

Futbolchilarni mahalladan boshlab seleksiya qiladigan tizim yaratildi. Bunga alohida imtiyozlar joriy qilinib, 9 mingdan ziyod mahallaning 70

foizida futbol uchun mini maydonchalar tashkil etildi. Shuningdek, 1,5 mingta maktabning futbol stadionlari ta'mirlanib, 1 milliondan ziyod o'quvchi va mahalla yoshlari qamrab olindi. Yoshlar o'rtasida mahalla, tuman, viloyat va respublika turnirlarini an'anaviy o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Tariximiz, milliy o'zligimizni tiklash maqsadida bunyod etilgan poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy ziyoratgohi kabi ulkan va noyob majmualar yurtimizning faxriga aylanib ulgurdi. Islom sivilizatsiyasi markazi – O'zbekiston tarixida ilgari misli ko'rilmagan ilmiy-ma'rifiy majmuadir. Bu yerda ming yillik ma'rifat merosi, zamonaviy texnologiyalar va Renessans ruhi uyg'unlashib, mamlakatning yangi intellektual qiyofasini namoyon etmoqda.

Keyingi sakkiz yilda yurtimizda 31 million kvadrat metrdan ortiq yoki qariyb 12 mingta ko'pqavatli uy-joy barpo etilgani tarixiy qadam bo'ldi. Shu yilning o'zida "Yangi O'zbekiston" va boshqa massivlarda yana 130 ming xonadonli zamonaviy uy-joylar qurilib, aholiga topshirilmoqda. 2030-yilgacha butun dunyoda qo'llanayotgan "yashil shahar" standartlari asosida barcha shaharlarimizda yashillik darajasi 30 foizga yetkaziladi.

Mamlakatimizda aholini toza, sifatli energiya bilan ta'minlash ham urbanizatsiya jarayonlarida muhim o'rin egallaydi. 2024-yili 25-mart kuni davlatimiz rahbari Namangan viloyatida yangi elektr stansiyalari qurilishini boshlab bergan edi. Bu yil ulardan biri – Norin GESlar kaskadining dastlabki bosqichi ishga tushdi. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda strategik yo'nalish sifatida belgilangan. Oxirgi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda o'ndan ziyod quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Shu bilan birga, qator hududlarda 450 megavattli gidroelektr stansiyalar foydalanishga topshirildi.

Hozirda "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati tomonidan Norin daryosida 6 ta GES kaskadi qurilishi boshlangan. Loyihaning umumiy qiymati 428 million dollardan ziyod, umumiy quvvati 228 megavatt bo'ladi. Birinchi bosqichda GES-1 ishga tushirildi. Eng muhimi, u to'liq mahalliy mahsulot va uskunalar asosida barpo etildi. Shu ma'noda, uni mamlakatimizdagi birinchi milliy GES deiyish mumkin. GES-1 yillik 171 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu yerda 130 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Loyiha natijasida 430 mingta xonadon elektr energiyasi

bilan ta'minlanadi, yiliga 290 million kub metr gaz tejaladi. Bu iqtisodiyot uchun qariyb 300 milliard so'mlik qo'shimcha manfaat demakdir. Shu jihatdan "Norin GESlar kaskadi" nafaqat energetik, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ham ega.

O'zbekistonning "yashil energetika"ga o'tish strategiyasi doirasida 2025-yilda bir qator yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Bu loyihalar energetika xavfsizligini ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ular xalqaro hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan bo'lib, mamlakatning energetika mustaqilligini mustahkamlaydi.

2025-yil dekabr oyida ishga tushirilgan yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlari – qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta energiya ishlab chiqarish, saqlash quvvatlari va boshqa infratuzilma inshootlari – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy energetika tarmog'ini salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli strategiyaning bir qismidir. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida umumiy qiymati 3,3 milliard dollarga teng jami 3 ming 500 megavattli 16 ta quyosh, shamol, issiqlik va gidro elektrostansiyalari shular jumlasidan.

Foydalanishga topshirilayotgan loyihalar orasida 1 ming 245 megavattli 10 ta energiya saqlash tizimi ham bor. Bu energiya eng ko'p iste'mol qilinadigan tig'iz vaqtlarda qo'shimcha 1,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi. Qo'shimcha ravishda ishga tushirilayotgan 11 ta yirik podstansiya va 420 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar tizimining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Yangi tashkil etilgan, yiliga 15 mingta transformator ishlab chiqaradigan "Angren Energo" hamda 155 ta gidro-agregat tayyorlab beradigan "Uzhydropower" korxonalari iqtisodiyotimizga muhim hissa qo'shadi.

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi. Yoki 867 ta "og'ir" mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug'orish uchun ilk bor suv yetib bordi. Joriy yilda 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadonga mo'ljallangan ko'pqavatli uylar aholiga topshirildi, odamlarning o'zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Biznes vakillari tomonidan

24 million kvadrat metr noturar-joy obyektlari barpo etildi. Umuman, so'nggi to'qqiz yilda 210 million kvadrat metrli turar-joy va noturar-joy obyektlari foydalanishga topshirildi.

2025-yilda urbanizatsiya jarayonlarini jadal-lashtirish va yirik shaharlardagi yuklamani kamaytirish maqsadida qator yangi shaharsozlik loyihalarining birinchi bosqichlari ishga tushirildi va ayrimlari qurilmoqda. Xususan, "Yangi Toshkent" shahri qurilishi faol davom etib, uning ayrim hududlarida turar-joylar, ijtimoiy obyektlar (maktab, bog'cha, poliklinika) va savdo-ko'ngilochar majmualari ochildi.

2025-yilda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator yirik loyihalar ham ishga tushirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan "Samarqand – Urgut" yangi temir yo'l liniyasi shular jumlasidan. Ushbu temir yo'l qurilishi 2025-yil fevral oyida boshlangan bo'lib, umumiy uzunligi 55 kilometrni tashkil etadi. Loyiha doirasida ikkita vokzal, "Urgut" iqtisodiy zonasida ikkita yuk stansiyasi hamda bir qator ko'priklar barpo etildi. E'tiborlisi, mazkur liniyani kelgusida to'liq elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga mazkur yo'nalishda harakatlanuvchi poyezdda Urgutga bordi. Safar chog'ida Prezidentimiz temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, yo'lovchilar uchun qulayliklarni yanada oshirish, temir yo'llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish yuzasidan mutasaddilarga qo'shimcha topshiriqlar berdi. Shuningdek, yo'l bo'ylab amalga oshirilayotgan qurilish va obodonchilik ishlariga e'tibor qaratdi. Yangi temir yo'lning kelishi bilan Urgutda iqtisodiy o'sishni cheklab turgan to'siqlar, logistik "tromb"lar bartaraf etiladi. Yuk tashish tezlashadi, mahsulotlar bozorlarga arzon va vaqtda yetkaziladi, investorlar uchun qulayliklar yanada ortib, hududning raqobatdoshligi oshadi. Eng muhimi, hududda yaratilayotgan yangi imkoniyatlar aholining turmush darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma rivojlangan joyda ish o'rnlari ko'payadi, xizmatlar yaxshilanadi, tadbirkorlik faollashadi.

Bundan tashqari, respublika ahamiyatiga ega yo'llarning zamonaviy standartlar bo'yicha rekonstruksiya qilinishi va yangi yo'llarning qurilishi, ayniqsa, tranzit koridorlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga e'tibor qaratilishi, 2025-yilda bir nechta yirik avtomobil yo'li uchastkalari va ko'priklar foydalanishga topshirilishi iqtisodiyotning "qoni"ni yanada jo'shtirishi, shubhasiz.

Bir so'z bilan aytganda, 2025-yilda bunyod etilgan yirik va strategik loyihalar Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lidagi izchil sa'y-harakatlarimizning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonlar kelgusida ham mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'ktam HAMRAALI

YAXSHI NIYAT



QAMISHDAN BEL BOG'LAYMIZ

2026-yil ziyolilar, ayniqsa, adabiyotshunos-u ijodkorlar qamishdan bel bog'laydigan yil bo'ladi, nasib. Axir, ota-bobosining to'yi-da nevara-chevaralari xizmatda bo'lmaydimi?!

Yangi yilda Vatanimiz mustaqilligining shonli 35 yilligini katta bayram sifatida nishonlaymiz. Sohibqiron Amir Temur tavalludiga 690 yil, Mir Alisher Navoiy taval-ludiga 585 yil to'ladi.

Shaxsan Davlat rahbarining o'zi "Bunday ulug' sanalarni yuksak darajada, har tomonlama munosib o'tkazish uchun, albatta, tegishli qarorlarni qabul qilamiz. Ularni amalga oshirishda mahallalar, ta'lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilarimiz, xorijdagi elchixonalarimiz, umuman, butun xalqimiz faol ishtirok etadi, deb ishonaman", deya ta'kidladi Murojaatnomada.

Bu yo'lda biz ham munosib hissamizni qo'shishga harakat qilamiz!

Yangi yilda ko'p ming nufusli mushtariylarga sog'liq-salomatlik, baxt va omad, ilmiy va ijodiy ilhomiga yuksak parvoz, shaxsiy hayotida xotirjamlik tilaymiz!

Suvon MELI,
filologiya fanlari doktori,
professor

TARIXDAN SADO

JADIDLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK

Bugungi kunda O'zbekiston kutubxonachilik tizimi modernizatsiyasi, raqamli kutubxonalar, axborot-resurs markazlari rivoji jarayonida jadidlar yaratgan ma'rifiy kutubxonachilik an'analarini tarixiy-ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqish va chuqur o'rganish muhim metodologik ahamiyatga ega.

Jadidlarning ma'rifiy paradigmasi shuni ko'rsatadiki, ular uchun kutub-xona: bilim manbayi sifatida – jamiyat va inson haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish vositasi; ma'naviy tarbiya maskani sifatida – axloqiy, diniy va fuqarolik qadriyatlarini targ'ib qiluvchi maydon; ijtimoiy muloqot maydoni sifatida – ziyolilar, o'qituvchilar, talabalar va keng jamoatchilik uchrashuv joyi o'laroq talqin etilgan. Shu ma'noda, jadidlar kutubxonani oddiy "kitob saqlanadigan joy" emas, balki ma'rifiy-siyosiy platforma sifatida qabul qilgan.

Jadidlari faoliyati davrida Turkistonda quyidagi turdagi kutubxonalar shakllanganini ko'ramiz:

Maktab va madrasalar qoshidagi kutubxonalar – yangi usuldagi maktablar, xususiy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilgan kichik kutubxonalar o'quv-darslik, didaktik va tarbiyaviy-lisoiy adabiyotlar bilan ta'minlangan.

Jamoat kutubxonalar – mahalliy aholi, savdogarlar, hunarmandlar, shuningdek,

jadid ziyolilari mablag'lari hisobidan tashkil etilib, keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Shaxsiy va oilaviy kutubxonalar – jadid ziyolilarining uy-kutubxonalar (Behbudiy, Avloniy, Fitrat va boshqalar) atrofida yoshlar va hamfikrlar to'planadigan ma'naviy muhitni vujudga keltirgan.

Vaqf kutubxonalar – masjid va madrasalar tarkibida vaqf mablag'lari hisobiga yuritilgan, ammo jadidlar ta'siri ostida ularning fond tarkibi va o'quvchi doirasi ma'lum darajada o'zgarib borgan.

Mazkur ziyo maskanlari tarmo-g'ini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jadidlar davrida "mak-tab – matbaa – kutubxona – matbuot" zanjiri ko'rinishidagi yagona ma'rifiy infratuzilma shakllana boshlagan.

Jadid kutubxonalarining fond siyosati an'anaviy diniy-fiqhiy adabiyotlar bilan bir qatorda, tarix, geografiya, tabiatshunoslik, matematika kabi dunyoviy fanlarga oid asarlar, turk, tatar, rus, turk-usmonli tillaridan tarjima qilingan qo'llanmalar, zamonaviy pedagogika, psixologiya, tilshunoslik bo'yicha risolalar, badiiy-adabiy asarlar bilan boyitilganini ko'rsatadi. Bu holat kutubxona fondini ko'p tarmoqli bilim manbayiga aylantirgan.

Jadid ziyolilari fondni shakllan-tirishda ilmiy foydalilik va dolzarblilik, ona tilida adabiyotlarni ko'paytirish, diniy va dunyoviy bilimlar o'rtasida muvozanatni



Samarqand. Registon kitob do'koni. Suratkash: S.M. Dudin, 1901-y.

saqlash, yoshlar uchun ommabop, tushunarli uslubdagi asarlarni tanlash tamoyillariga amal qilganlar.

Milliy ongning shakllanishida tarixiy xotira muhim komponent hisoblanadi. Jadid kutubxonalarida turkiy xalqlarning tarixiga oid asarlar, musulmon Sharqi tarixiy manbalar, Markaziy Osiyo allomalari merosiga bag'ishlangan risolalar saqlangan yosh avlodga o'z tarixiy ildizi, ilmiy an'analarni anglash imkonini bergan. Natijada ilmiy merosimiz haqidagi tasavvurlar, milliy g'urur va o'zlikni qadrlash hissi, mustamlaka mafkurasiga nisbatan tanqidiy munosabat kuchaygan. Kutub-xona shu tariqa milliy tarixni qayta o'qish maydoniga aylangan.

Jadidlar ona tilida ta'lim berish va matbuot nashrlarini chiqarish masalasini milliy uyg'unlashning asosiy sharti deb bildilar. Kutubxonalar fondida o'zbek tilidagi darsliklar va adabiy asarlar, "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Oyina" singari jadid gazeta va jurnallari, chet tillardan tarjima qilingan ommabop asarlar mavjud bo'lib, ular kitobxonlik madaniyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Kutubxona o'quv zallarida gazeta-jurnallar bilan tanishish, bahs-munozaralar o'tkazish, mutolaaga doir ko'rsatmalar berish kabi ishlar olib borilgan. Bu jarayon tilni modernizatsiya qilish, yangi ilmiy-texnik terminologiyani shakllantirish, savodxonlikni oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy

ongning mazmunini boyitishga xizmat qildi.

Kutubxona fondidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mazmundagi asarlar, shuningdek, turli musulmon va jahon xalqlarining taraqqiyotiga doir risolalar o'sha davr kitobxonida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida tanqidiy fikrlash, shuningdek, fuqarolik mas'uliyatini his qilish, ijtimoiy adolat, taraqqiyot, erkinlik kabi tushunchalarni anglash sifatlarini shakllantirgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kutubxonachilik tizimining modernizatsiyasi, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari, elektron va raqamli kutubxonalar, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, ilmiy va oliy ta'lim kutubxonalarini faoliyatini takomillashtirish jarayonida jadidlar merosiga murojaat qilish muhim ilmiy-nazariy asoslardan biri bo'lib bormoqda. Xususan, jadidlar tomonidan shakllantirilgan kutubxonani milliy ma'naviyat markazi sifatida ko'rish, ona tilidagi adabiyotlar ulushini kengaytirish, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini targ'ib etish, kitobxon va kutubxonachi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini ma'rifiy maqsadlarga yo'naltirish tamoyillari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Hozirda O'zbekiston Milliy kutubxonasi, viloyat va tizim kutubxonalarini faoliyatidagi tarixiy merosni saqlash,

raqamlashtirish va ommalashtirish, "ochiq fond" tizimi, interaktiv xizmatlar bilan bog'liq ilmiy-amaliy loyihalar aynan jadidlar davrida boshlangan ma'rifiy an'analarni yangi sharoitda davom ettirishning ifodasi sifatida ko'rilishi mumkin.

Xulosa o'nida aytish mumkinki, jadid harakati davrida kutubxonachilik tizimi ma'rifiy islohotlarning ajralmas qismi sifatida shakllandi va taraqqiy etdi. Kutubxonalar maktab, matbaa va matbuot bilan birgalikda yagona ma'rifiy infratuzilmani tashkil etdi.

Bugungi O'zbekiston kutubxonachilik tizimi modernizatsiyasi jarayonida jadid kutubxonachiligi merosini chuqur o'rganish, uning konseptual tamoyillarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, ayniqsa, Milliy kutubxona faoliyatida ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.


Kelgusida jadidlar tomonidan tashkil etilgan maxsus kutubxonalar, ularning fond tarkibi, kitobxonlar kontingenti, ijtimoiy-siyosiy ta'siri bo'yicha alohida arxiv va manbashunoslik tadqiqotlarini kengaytirish, ushbu mavzuni O'zbekiston kutubxonachilik tarixining maxsus bo'limi sifatida chuqur yoritish, maqsadga muvofiqdir.

Umida TESHABOYEVA,
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
direktori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori



MILLAT FIDOYILARI

1938-yilning boshlarida NKVD tomonidan qamoqqa olinib, “Stalinga suiqasd uyushtirmoqchi boʻlgan” degan ayb bilan Toshkentda otib tashlangan oʻz davrining faol yoshlaridan biri, oʻzbek sportining iftixori Hidoyat Inoyatov edi.



Hidoyat Inoyatovning hibsdagi surati.

Hidoyat Inoyatov 1913-yili Toshkent shahrining Taxtapul dahasidagi Qozi-koʻcha manzilida tugʻilgan. Uning bolalik davri Oktyabr toʻntarishi roʻy berib, jadid maktablari yopila boshlagan hamda ular oʻrniga namunaviy maktablari paydo boʻlayotgan pallaga toʻgʻri keladi. Qozikoʻchaning shundoq biqinida “Ulugʻ-bek” maktabi ochiladi. Qahramonimiz shu yerda oʻqiydi. Ertalab mahalladagi oʻzbek maktabida, tushdan soʻng Yangi shahardagi rus maktabida tahsil oladi. Yer-suv islohoti yillarida otasi quloq qilinib, butun oila sinovlar girdobida qoladi. Hidoyat maktabdan qolib, mustaqil hayot yoʻlini tanlashga majbur boʻladi.

Oʻsha yillari Toshkentda yangi artel, zavod va fabrikalar izma-iz ishga tushayotgan, shahar hayotiga ishchilar qatlami kirib kela boshlagan edi. Bu korxonalar mahalliy yoshlar bilan faol ish olib borib, ularni ishga jalb etish uchun birga, muayyan gʻoyalari asosida tarbiyalashga harakat qilardi. Ana shu muhit, yuqorida aytganimizdek, oilaviy sharoit masalasi endigina oʻn besh yoshdan oshib-oshmagan oʻspirinni Toshkent tramvay trestiga yetaklaydi. U tezda tramvay haydashni oʻrganib oladi. Uning tirishqoqligi, yangilikni tez qabul qilishi rahbariyat eʼtiborini ham tortadi. Hidoyat qisqa vaqt ichida jamoada oʻz oʻrniga ega boʻlib, ishonch qozonadi. Uning taʼsirida asta-sekin qoʻni-qoʻshni yigitlar ham tramvaychilik kasbini egallay boshlaydi.

TARIX VA TAQDIR



1937-yil 19-oktyabr. Muhammad hoji Toʻrtkoʻl bozoridan besh dona gurvak olib qaytdi. Bola-chaqaga maydagina qovunlar urvoq ham boʻlmadi. Katta nevarasi Sharifa “Buva, yana qovun yeyman!”, deb moʻltirab turibdi. U yana bozorga otlandi. Kampirining koʻngli chopmadi: “Keyingi bozor borarsiz, hozir olti chaqirim yoʻl bosib horib keldingiz”, dedi. Sharifa ikki yashar ukasi Abdulla bilan buvasi qumlik oralab oʻtgan yoʻlda koʻrinmay ketguncha ortidan qarab qoldi...

Shu ketganicha Muhammad hoji uyga qaytmadi. Uni NKVD xodimlari qum barxanlari orasida poylab turgan ekan. Izlab ortidan borgan amakisi va farzandlari buvani bir kun Xonqada, soʻng yana bir kun Urganchda saqlab, Toshkentga olib ketishgani xabarini eshitishdi, xolos.

Bu kunlarni Sharifa momo shunday eshladi: “Buvamizni “xalq dushmani” deb qamashgach, biz hatto sharpadan ham qoʻrqadigan boʻlib qoldik. Buvam haqida uyda shivirlab gaplashardik. Avvaliga, bola emasimizni, buvam nega kelmaydi, deb soʻraganimizda, “Toʻrtkoʻl bozorida qovun qolmagan ekan, sizlarga va-da qilgani uchun qovun izlab Urganchga ketibdi. Qovun topsa, kelib qolar”, deb aldashgan. Men-ku, sal esimni taniganman, ammo ikki yoshidan endi hatlagan Abdulla ukam “Buvam qachon qovun opkeladi?” deb yigʻlardi. Shunday zamonlarni koʻrdik, bolam”.

Kech kuz kunida nevaralarini quvontiray deb bozorga ketib, qaytib kelmagan inson kim edi?

Muhammad hoji Aminaddin oʻgʻli chor hukumati Xiva xonligini bosib olgan yili ayni bahorda Toʻrtkoʻl yaqinidagi Shoʻroxon mavzesida tugʻilgan. Otasi beklik hokimi edi. Muhammad eski maktab, Shergʻozixon madrasasi va rus-tuzem maktabida

taʼlim olgandi. 1892–1896-yillarda Fransiyaning Tuluz shahridagi suv xoʻjaligi kollejida oʻqib, amaliyotni Istanbulda oʻtkazgandi.

Hali yigirmaga toʻlmagan yigit tahsil bilan birga, arab, fors, rus, fransuz, turk tillarini mukammal oʻrganadi. Vatanga qaytgach, bir muddat Toʻrtkoʻldagi Amudaryo flotiliyasi uchun kema dargʻalari tayyorlash kursiga boshchilik qiladi. 1900–1918-yillarda xonlikning Xonqa bekligi hokimi, 1913–1918-yillarda bir vaqtning oʻzida xonlik bosh mirobi, 1918-yilda Xorazm Xalq Respublikasida ziroat (qishloq xoʻjaligi) noziri vazifalarida ishlaydi. Keyinchalik “Oʻrta Osiyo suv qurilishi” idorasida bosh muhandislik qiladi. 1937-yilning 19-oktyabrida hibsga olinib, “uchlik” tomonidan oʻn yil qamoq jazosiga hukm qilinadi. Uning taqdiriga Sibirida jazo muddatini oʻtash yozilmagan ekan – 1938-yilning 27-fevralida Zangiotedagi “Tuyasaroy” qamoqxonasida halok boʻladi.

Olti tilni mukammal bilgan Muhammad hoji haqida oʻsha yillarda Turkistonga kelgan xorijlik olimlar esdaliklarida yozib qoldirgan. Rus olimi Likoshin, Berlin universiteti professori Zigmayer Xonqa hokimi boʻlib ishlayotgan oʻttiz yashar Muhammad hoji uyida katta kutubxona tashkil qilgani, u yerda “Tarjumon” va boshqa vaqtli nashrlarning taxamlari saqlanayotgani, oʻzi hokim boʻlgan beklikda bir qancha maktablar ochgani, zavod va fabrikalar qurdirgani haqida yozib qoldirgan. Chekka bir beklikda hokim boʻlgan, egnida uniqqan qora toʻn kiygan yigitning dunyo siyosatidan boxabarligi mehmonlar hayratiga sabab boʻlgan.

Yana Sharifa momo xotiralarga qaytamiz: “Urushdan oldingi yili yarim kechasi buxorolik bir odam bizni yoʻqlab kelib, “Muhammad hoji bilan Zangioteda qamoqda birga yotdik. U kishi

oʻpkasi shamollab, sogʻligʻini yoʻqotgandi. 1939-yil qish oyogʻida omonatini topshirdi. Hibsxonada janozasini oʻqidiq”, deb anchagina gaplarni aytgan. Oʻsha odam tong qorongʻisida qaytib ketgan. Otam: “Bu kishi NKVD aygʻoqchisi boʻlishi mumkin. Sinash uchun kelgandir”, deb ayollarga aza ochishga ruxsat bermagan. Urush yillarida Xonqaning Madir qishlogʻidan bir xoʻja odam kelib, buvam bilan birga Tuyasaroyda tutqinda yotgani va vafoti taʼsilotlarini aytib, buvaming vasiyatlarini yetkazgach, ikki momom va onam aza ochdi. Shundayam “xalq dushmani”ga aza ochdi” degan ayblov boʻlmagisi uchun urushda halok boʻlgani haqida qoraxat kelgan amakimning oʻgʻlini bahona qilishgan maʼrakaga. Zamon shunaqa yomon edi”.

Hatto qamoqda, surgunda bevaqt jon taslim qilgan insonlarga aza ochish qilinganini qanday izohlash mumkin? Buni zulm saltanati deymizmi, qoʻrquv saltanatimi? Bilmadik.

“E, bolam, meni gapirtirma. “Otam “xalq dushmani”, undan voz kechdim”, deb bir varaq yozib ber, deb otamni ancha qistovga olishgan. Otam oʻsha vaqtda paxta tozalash zavodida ishlardi. Rozi boʻlmagach, ishdan boʻshatish bilan qoʻrqitishgan. Ishdan boʻshasa bir etak bolalari koʻchada qolishini bilsa-da, rozi boʻlmagan...

1956-yili Sulton amakim nomiga bir enlik xat kelgan. Bobom nohaq ayblangani, endi toʻla oqlangani yozilgan varaq keyinchalik momom va onamning koʻz yoshlaridan titilib ketgan. Oʻsha xatni men oʻqib bergandim. Ustiga qandaydir muhr bosilgan xat qoʻrqinchli edi, pochtagi keltirib berganida, amakimning tili kalimaga kelmay qolgani.

Oltmishinchi yillarda otam va jigarlari Zangioteda borib, buvam dafn qilingan qabristonni ziyorat qilib qaytishdi. Yurt mustaqil boʻlgach, emin-erkin bobomni xotirlaydigan, nomlarini

qoʻrqmay-netmay aytadigan, qaddimzni koʻtarib yuradigan boʻldik”.

Sharifa momo davr taqozosi tufayli bor-yoʻgʻi uchinchi sinfni bitkazadi. Lekin Muhammad hoji ikki yashar nevarasi Abdullani “Bu oʻgʻlim hali vazir boʻladi”, deb erkalaganida, farishtalar omin degan ekan. Abdulla Xudoyberganov dastlab besh yil Qoraqalpogʻiston, keyin besh yil Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash vaziri boʻlib ishladi, ilmiy izlanishlar olib borib, fan doktori, professor darajasiga yetishdi.

Daraja nabirasi – Otaulla va Habibulla taqdiriga ham vazir boʻlish yoziladi. Yana bir nabirasi Neʼmatulla Xudoyberganov istiqloq zamonasida Hujj Amudaryo mintaqasida salkam yigirmasida qoʻym boʻldi. Urumta, hozirgacha jadid Muhammad hoji avlodlari orasidan olti nafar vazir, oʻn nafarga yaqin fan doktori yetishib chiqqani taqdirning inʼomi – ularning jismida jadid bobosi qoni oqayotgani va katta nabira Sharifa momoning ukalari ilm olishlari uchun jon fido qilgani natijasidir.

Qarangki, ogʻir zamonlarda uzoq Yevropada tahsil olish taqdiriga yozilgan Muhammad hoji-ning chevaralari istiqloq zamonida AQSH va Yevropaning nufuzli universitetlarida oʻqish baxtiga erishdi.

Sharifa momo bilan suhbatlarimiz adogʻiga yetmagandek, hali soʻraydigan narsalar koʻpdek edi. Ammo dunyo omonat ekan – yangi yil kirib kelishiga biror hafta qolganida Sharifa momo 97 yoshida omonatini topshirdi...

Xorazmlik jadid avlodi boʻlgan, bola boshi bilan oʻsha insondan hayotning ilk sabogʻini olgan va buni avlodlariga meros qoldirgan tabarruk momo ham tarixga aylandi.

Roʻzimboy HASAN

qilardi. Aksilinqilobchilik va sovetlarga qarshi targʻibotda ayblangan, shaharlik kishilarning xotini ham qamoqqa olinar, uch yoshgacha boʻlgan goʻdaklardan tashqari barcha farzandi turli respublikalardagi bolalar uylariga yuborilardi. Agar oilada ikki nafar bola boʻlsa, ular ataylab turli shaharlarga joylashtirilardi. Shu zayl, ular ota-onasi kim, ogʻa-inilari, opa-singillari kim – qon-qardoshlik rishtalaridan yiroq oʻsib-ulgʻayardi.

Biroq hayot kezi kelsa har qanday zulmga qarshi jasoratni qoʻzgʻab, kutilmagan qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Biz buni qahramonimiz oilasi taqdiri misolida yaqqol koʻramiz. Atoqli shoir Maqsud Shayxzoda Inoyatov bilan yaxshi tanish, shu sabab uning oilasi boshiga tushishi mumkin boʻlgan fojialarning oldini olishga kirishadi. Shoirning saʼy-harakati bilan Hidoyat Inoyatovning xotini Hadicha boshqa kishi bilan soxta nikohdan oʻtadi. Bolalar uyiga joylashtirilishi lozim boʻlgan qizi Mamlakat shu yoʻl bilangina onasi bagʻrida qoladi. Yana bir qizi Hurriyat esa amakisi Neʼmat ismini familiya sifatida qabul qilib, otini ham oʻzgartirib, Kira Nigmatovaga aylanadi.


Sagʻir qolgan qizaloqlarga otalik qilmoqchi boʻlgan Neʼmat Inoyatov 1939-yili armiya safiga olinib, Finlyandiya bilan urushda qatnashadi. Ikkinchi Jahon urushi boshlanishi bilan koʻngilli ravishda frontga oʻtlanib, Stalingrad ostonalaridagi janglarda qahramonlarcha halok boʻladi.

Bu yozda Neʼmatginasidan qoraxat kelgan onaizor, endi bor umidini domdaraksiz ketgan oʻgʻli Hidoyat yoʻliga qadaydi va qariyb yigirma yil shunday yashaydi. Farzandining “qaytib kelishi”ni 1957-yilga qadar kutadi. Ana oʻsha yili 27-may kuni Hidoyat Inoyatov ishida jinoyat tarkibi boʻlmagani tan olinib, vafotidan keyin oqlangani maʼlum boʻladi. Hafiza ayaning uzoq yillik kutuvlari, umidlari shu joyda uziladi. Koʻp oʻtmay, ona omonatini topshiradi. Bu azob-uqubatlari ichida Hidoyat Inoyatovning umr yoʻldoshi Hadicha, qizi Mamlakat ham uzoq yashamaydi.

Adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov taʼbiri bilan aytganda, “Hidoyat Inoyatov oʻzbek xalqining farzandlari har tomonlama chiniquqan, har qanday mashaqqat va qiyinchiliklarni yengib, oʻz maqsadi sari dadil boruvchi va xalqning dardiga malham boʻla oluvchi avlod boʻlishini istagan edi, xolos”.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Husanxon Niyozov – 1898-yili Andijon shahrida tugʻilgan. Hibsga olingan paytda xizmat joyi aniq boʻlmagan. “Milliy ittihad”ning Andijon boʻlimi raisi boʻlgan. U tergovda shunday yozgan: “Men 1919-yildan 1920-yil oxirigacha “Milliy ittihad” tashkilotining aʼzosi boʻlganman. Bu tashkilotning markazi Toshkent shahrida boʻlgan, rahbari esa Munavvar qori boʻlgan, bu davrda men Andijonda yashardim, bu yerda turk zobiti Sulaymon Samay bilan tanishib qolgan edim. U Andijon shahriga 1919-yil oxirlarida millatchi guruhlarining “Milliy ittihad”ini tashkil etish uchun kelgandi. Bu yillari men 6-son maktabda oʻqituvchilik qilardim va tabiiy fanlardan dars berardim”. 1942-yil 29-aprelda SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi Husanxon Niyozov ishini koʻrib chiqib, unga berilgan otuv hukmini bekor qilib, oʻrniga 10 yil qamoq jazosi tayinlaydi.

Roʻziqul Yusupov – 1896-yili Samarqand shahrida tugʻilgan. Millati oʻzbek, ikki marta sudlangan. 1921-yildan “Milliy istiqloq” aksilinqilobiy, millatchi tashkilot aʼzosi boʻlgan. Shu tashkilotning Samarqanddagi filialida rahbarlik qilgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy xarakterdagi targʻibot olib borganlikda, yaʼni OʻzSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv-lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1938-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Abdulla Qori Toshboyev – 1889-yili Namangan shahrida tugʻilgan. Sobiq savdo-garning oʻgʻli. 1928-yili 1 yil 8 oy ozodlikdan mahrum etilgan. Hibsga olingan paytda “Volga” arteli choyxonasi mudiri boʻlgan. “Shoʻroyi Islom” tashkiloti aʼzosi boʻlganlikda, aksilinqilobiy yigʻinlarda ishtirok etganlikda, aholi orasida doimiy ravishda millatchilik targʻiboti olib borganlikda, chorvachilik sohasiga zarar yetkazganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Muqimbek Hamzabekov – 1894-yilda tavallud topgan. Karmana rayonidagi yirik amir amoldorining oʻgʻli. “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi, milliy ozodlik harakati ishtirokchisi. Atrofidagilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy millatchilik trotskiychilik tashvi-qoti olib borganlikda, sovet hokimiyati va uning tadbirlari shaʼniga aksilinqilobiy boʻhtonlar bildirib, monarxik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. Muqimbek Hamzabekov 2329-sonli ish boʻyicha otib tashlangan.

Qayumjon Qurbonov – 1898-yili Andijon shahrida tugʻilgan. Millati oʻzbek. Aksilinqilobiy maqsadda Qoshgʻarda yashayotgan va kapitalistik davlatlardan birida konsullikda ishlayotgan ukasi Ismoiljon bilan aloqada boʻlib, unga aksilinqilobiy maʼlumotlar yetkazib turganlikda; 1936-yili sentyabrda Andijon orqali Shvetsiyaga qaytayotgan missionerlar Nosterem va Soterbergarni Andijon shahrida kutib olib, ularni Orenburg shahrigacha kuzatib borib, aksilinqilobiy tuhmatona maʼlumotlar berganlikda; ochlik haqida aksilinqilobiy, igʻvogarona gaplar, mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, 1938-yil 13-fevralda otuvga hukm qilingan. Hukm 1938-yil 10-mart kuni ijo etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari boʻyicha
falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



FAOL MUALLIFLARIMIZ

MUSHTARIYLAR E'TIROFI

O'tgan 2025-yil davomida gazetamiz bilan yaqindan hamkorlik qilgan mualliflar mushtariylarning onlayn ovozi orqali aniqlandi. Ular quyidagilar:

Ibrohim G'afurov
Zuhridin Isomiddinov
Baxtiyor Hasanov
Eshqobil Shukur
Qamchibek Kenja
Abduqayum Yo'ldoshev

Hamidulla Boltaboyev
Abdulhamid Muxtorov
Shahnoza Nazarova
Iroda Umarova
Husan Sodiqov



DIL IZHORLARI

XUSHXABAR!

Ho-o-o-y-y, yaxshila-a-a-r-r-r!
Eshitmadi demangla-a-r-r-r!
Quloq solinglar, quloq!
Zamin-u Samoni xushxabar
tutdi! Xushxaba-a-r-r-r!!! Insonligi
yodiga tushdi Odamzodning,
yodiga-a-a-a!..



Yilning birinchi kunidan, ilk soati,
ilk daqiqalaridan boshlab butun
yer yuzidagi barcha katta-kichik
nizolar, qirg'inlar, urushlar batamom
to'xtadi. Umumbashariyat bir
yoqadan bosh chiqarib, yalpi
AHLASHUV, DO'STLASHUV,
BIRODARLASHUV bitimiga imzo
chekdi! Zamonamiz allomalari,
ulamoyu donishmandlari, muta-
raqqiy va qudratli davlat rahbarlari,
eng zakii, eng dono ziyolilari
inson tabiatidagi e-eng ardoqli,
eng qudratli, eng boqiy tuyg'u
bo'lmish MEHR-MUHABBAT,
MEHR-OQIBAT tuyg'usiga quloq
tutgan holda yil oxiriga qadar tom
ma'nodagi INSONPARVARLIK
g'oyasini ilgari surdilar. Ko'hna
tarix ko'rmagan shoyon VOQEA
yuz bermoqda!
Gina-kuduratlar unutiladi, qasd
olishlarga chek qo'yiladi, ko'zlardan,

miqyosida adolat, rahm-shafqat
musiqasi jaranglaydi.

Olam erkin nafas oladi, tabiat
neki tirik jon bor – hamma-
hammasiga Ona og'ushiga,
Ona quchog'iga aylanadi. Suvlar
sharqirab oqadi, shabada dilga
orom bag'ishlaydi, Quyosh
harorati, tun-kun tarovati
yashashga, yashashga va yanada
emin-erkin yashamoqqa undaydi.
Yomg'ir-qor emas, rizq-ro'z, bara-
ka yog'adi. Dalalarimiz mo'l-ko'l
hosil beradi. Oilalar farovon,
xonadonlar quvonchga to'lib-
toshadi. Keksalarimiz izzatda,
yoshlarimiz mehnatda bo'lishadi.

Bemorlar sog'ayadi, kasalxona-
lar huvillab qoladi.
Farzandlar chehrasidan shodon
kulgi arimaydi.

Jinoyatga qo'l bormaydi.
Ona tabiat, Yer-u Osmon
erkin nafas oladi. Na havoda, na
qalblarda g'ubor qoladi.

BIR YIL! BIR YIL! BIR YIL!
Inson irodasi, inson zakovoti,
inson ong-u tafakkuri bir yil
chinakam INSONdek yashashga
qurbi yetadi!

Yil mobaynida bashariyat
o'zini o'zi davolaydi, xasta
ko'ngli, xasta ruhi, xasta nafi
izmidan chiqadi – insonlashadi.
"INSON O'ZING!" deya bong
urgan O'ZBEK shoirining ogohlik
qo'ng'irog'iga quloq osadi!
Sobit-u sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing!
Jondek aziz zamindoshlar!
Hamnafaslar! Quchoq ochib qarshi
olaylik, ulkan orzular yilini!

Xurshid DO'STMUHAMMAD,
adib

BIRGALIKDA
ZAVQLIROQ!

Bayramlar tinch yurtga,
ahil xalqqa yarashadi. Ko'z
tegmasin, O'zbekiston ana
shunday jannatmonand diyor.
Bu yerda barcha millat va
elat vakillari emin-erkin, teng
huquqda hayot kechiradi. Har bir
millat o'ziga xosligi bilan umumiy
uyimiz – O'zbekiston chiroyiga
chiroy qo'shadi.

2025-yil gruzin diasporasi
hayotida ko'tarinki kayfiyat va
salmogli yutuqlar bilan yakun-
landi. Yil davomida amalga oshi-
rilgan ijobiy ishlar va erishilgan
natijalar bizga chuqur mam-
nuniyat bag'ishlamoqda.

Yangi yil diaspora uchun
muhim voqea sifatida – yangi
maskanda ilk bor nishon-
lanmoqda. Ushbu makon milliy
madaniyatimiz, urf-odatlarimiz
va an'alarimizni saqlash
hamda keng jamoatchilikka
namoyon etish uchun qulay
sharoit yaratgani bilan alohida
ahamiyatga ega.

Ko'pmillatli yurtimiz ahlini
Yangi yil bilan samimiy tabrik-
laymiz! Barchangizga tinchlik-
osoyishtalik, barqaror taraqqiyot
va Vatanimiz ravnaqi yo'lida
yangi zafarlar tilaymiz!

Yangi yil muborak bo'lsin!

Eka MARGISHVILI,
Toshkent shahar gruzin
madaniyat markazi raisi

YANGILARDAN
GAPLASHAYLIK

Ayo, do'stlar,
Chala qoldi oh, suhbatijononimiz,
Ammo dilda hamon ahd-u paymonimiz,
Eski yilda qoldi gina, gumonimiz,
Yangi yilda yangilardan gaplashaylik!

Ayo, do'stlar,
Odam dardin odam olar, mehr olar,
Ki, jonni ham xo'rlik olar, qahr olar,
Bor g'amingni, ishq degan bir sehr olar,
Yangi yilda yangilardan gaplashaylik!

Ayo, do'stlar,
Ketar yillar kelmas bo'lib ketmoqdalar,
Har kunimiz tarixlarga bitmoqdalar,
Umrimizning zarvarog'in yirtmoqdalar,
Yangi yilda yangilardan gaplashaylik!

Ayo, do'stlar,
Axir, samo niyatlarga quloq tutar,
Orzularning ro'yobini omad kutar,
Ortda qoldi tashvishlar ham, o'tdi, o'tar,
Yangi yilda yangilardan gaplashaylik!

Ayo, do'stlar,
Bu dunyodan sog'inch qolar, alam qolar,
Yo yaxshi nom, shirin zabon, kalom qolar,
Qo'laringdan to'kilgan o', olam qolar,
Yangi yilda yangilardan gaplashaylik!

Farida AFRO'Z,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
o'rinbosari

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON XALQINI YANGI 2026-YIL –
MAHALLANI RIVOJLANTIRISH
VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI
BILAN SAMIMIY MUBORAKBOD ETADI!

2026



Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 738
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 564
Lotin yozuvida – 12 174
Media kuzatuvchilar – 74 732
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz